

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA'LIMI VAZIRLIGI  
ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI

Qo`lyozma xuquqida  
YDK 57 (069)

ABDURAIMOVA MAXLIYO SAIDQOSIMOVNA

**Jizzax viloyatini ekoturistik rayonlashtirish** mavzusida bajarilgan

5110400 - biologiya o`qitish metodokasi

Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:  
b.f.n. Sanaeva L.Sh.

## Annotatsiya

Tadqiqot ishida Jizzax viloyatining ekoturistik va rekretsiya hududlari o`rganilgan hamda ekoturistik rayonlarga bo`lib chiqilgan. Ulardan foydalanish usullari berilgan.

### Annotation

In this article given on Jizzakh Province's ecotourism, how to designate for a given zone, to develop and the usage of factors. There are written information in borders.

## MUNDARIJA

Кириш .....	2
<b>I bob. Ekologik turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari.....</b>	<b>7</b>
1. Ekologik turizmlarining mohiyati, maqsadi va vazifalari.....	7
2. Ekologik turizmni rivojlantirishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o`rni va ahamiyati.....	12
3. Ekoturizmda marshrutlar tuzish va Jizzax viloyati ekohudulari ekomarshrutlari.....	
I bob bo`yicha xulosa.....	
<b>2 bob. Jizzax viloyatida ekologiya turizm resurslari va ularning tavsifi.....</b>	<b>14</b>
1. Viloyatda ekologik turizm resurslari va ularning tavsifi.....	14
2. Viloyatda rekreatsiya resurslari va ularning tavsiflari.....	25
3. Ekologik turizmlarida turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari.....	43
II bob bo`yicha xulosalar.....	45
<b>3 bob. Viloyatda ekologik turizmlari resurslarini rayonlashtirish va turizmda foydalanish yo`llari.....</b>	<b>46</b>
1.Ekologik resurslarini rayonlashtirish.....	46
2.Ekologik va rekreatsiya resurslaridan turizmda foydalanish yo`llari.....	49
III bob bo`yicha xulosalar.....	
Xulosalar.....	59
Adabiyotlar ro`uxati.....	61
Ilovalar.....	

## KIRISH

**Tadqiqot ishining dolzarbliyi.** Ekologik turizm o`tgan asrning oxirlaridan boshlab jahon turizmi industriyasiga asta-sekin kira boshladi. Butunjahon turizm tashkilotining ma'lumotlari bo'yicha keyingi besh yilda ekologik turizmda turistlar oqimi tobora ko'payib borayotganligi haqida hisob – kitob natijalari keltirilgan.

Bu turizm yo`nalishida janubiy Evropa, Janubiy – sharqiy Osiyo, kichik Osiyo, Xitoy va Afrika qit'asidagi davlatlar oldingi o`rinlarga chiqmoqda. Albatda qayd qilingan geografik tabiiy manzillar betakror tabiat mintaqalaridir. Doimiy bahor va yoz iqlimiga ega bo`lgan davlatlarning tabiatdagi biologik xilma-xillik resurslari, sharoitlari bu mintaqalarda yil davomida turistlar oqimining ko`payishini ta'minlaydi, imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi kunga kelib jahonda ekologik turizm jadal suratlar bilan rivojlanib borayotgan iqtisodiyot sohalaridan biriga aylandi.

Ekologik turizmning rivojlanib borishining yana bir sababi turist o`zi qiziqgan tabiat va uning tabiiy sharoiti, biologik resurslari bilan tanishibgina qolmasdan, bu tabiat bag`rida dam ham oladi, tabiat go`zalligini chuqr qis qiladi. Uning resurslarini avaylash, xohish-istagi paydo bo`ladi. Respublikamizning ekologik turizm salohiyatini hisobga oлganimizda ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy resurslari - 4 faslli tabiat mavsumlari, o`zining ekologik tizimlariga ega bo`lgan 5 ta tabiiy landshaft bio-xilma xilliklarida endemik (faqat O`zbekiston tabiatida) turlarning mavjudligidir. O`zbekistonning ekologik turizmdagi resurslar salohiyatiga alohida to`xtalganimizda quyidagi ekoturizm manbalarini keltirish, tavsiflash masalaga ravshanlik kiritadi.

O`zbekiston 3,8 mln. getarga ega bo`lgan ovchilik – baliqchilik er maydonlariga ega, ulardan 1 mln. gettarini suv fondi tashkil etadi.

Respublikamiz faunasi 97 turdag'i o`txo'r hayvonlar, 424 turdag'i qushlar, 58 turdag'i sudralib yuruvchilar va 83 tur baliqlarga ega. Bulardan O`zbekiston respublikasi «Qizil kitobiga» sut emizuvchilarning 24 turi, qushlarning 48 turi,

sudralib yuruvchilarning 10 turi, baliqlarning 18 turi va 78 turdag'i umurtqasizlar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi o'simliklar va hayvonlar genofondi instituti ma'lumotlari bo'yicha, O'zbekistonda hozirgi kunda 4148 tur o'simliklar mavjud. Shulardan, 3000 turlari oliy, yovvoyi o'suvchi o'simliklar, ulardan 9 % endemiklardir.

O'zbekiston hududining muhofaza etilayotgan tabiiy hududlar tarkibida 2164 km<sup>2</sup> ni tashkil qilgan 13 ta davlat qo'riqxonasi, 6061 km<sup>2</sup> ni tashkil etgan 2 ta milliy bog` va noyob turlarga kiruvchi hayvonlarni ko'paytirish respublika markaziy – «Jayron» ekomarkazi, 12186 km<sup>2</sup> maydonni tashkil etgan 14 ta davlat buyurtmaxonalari mavjud.

Keltirilgan ma'lumotlarga qo'shimcha qilib qayd qilish mumkinki, O'zbekiston Markaziy Osiyoning o'rtaida, ekologik turizmning rivojlanishi uchun qulay transport, geografik hududlarida joylashgan. Mavzuning dolzarbligi shundaki, rivojlanib borayotgan mamlakatlarning turizm industriyasini asosan tabiiy yoki ekologik turizm hisobiga amalga oshirilmoqda. Ekspertlarning ma'lumotiga qaraganda ekoturizm sayyoqlik bozorining 10-20 %ini qamrab olgan, o'sish sur'ati esa umumiyligi turizm industriyasining o'sish sur'atidan 2 – 3 marotaba oshib ketdi.

Mavzu dolzarbligining yana bir ahamiyati shundaki, ekologik turizm hamisha rekreatsiya turizmi bilan birga faoliyat ko'rsatadi. Ekologik va rekreatsiya turizmlarini rivojlantirishni, rivojlantirish asoslarini tadqiq qilish tobora kechikib kelmoqda. Ekologik va rekreatsiya turizmlarini rivojlantirishning dolzarbligini hisobga olib, ekologik turizmning mohiyatiga baho berish va ekologik turizm resurslariga baho berish, ekologik turizm resurslariga turistik marshrutlar tuzishning uslubiy tashkiliy asoslarini ishlab chiqish, ekologik turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslariga to`xtalish, O'zbekistonning ekoturistik tabiiy mintaqalariga ta'rif berish hisoblanadi.

Lekin shu holatni ham alohida qayd qilish kerakki, O`zbekistonda ekologik turizm resurlarini ro`yxatdan o`tkazish va ulardan ekologik va rekreatsiya turizmlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish katta muammolarni tug`dirmaydi. Bu yo`nalishda eng muhim muammolardan biri ekologik va rekreatsiya turizmlari resurslarini rayonlashtirish hisoblanadi. Shuning uchun ham bitiruv malakaviy ishning mavzusi qilib «Ekologik va rekreatsiya turizmlari resurslarini rayonlashtirish» deb belgiladik. Chunki, ekologik va rekreatsiya turizmi resurslari juda xilma-xil, ko`p mavzuli bo`lganligidan bu resurslarga turistik talab va ehtiyojlar ham rang-barangdir.

Ekoturizm o`zining ta'rifini izohlashda birinchi navbatda tabiat qo`ynida bo`lib, uning resurslariga ozor etkazmaslikni ta'minlaydi. Tabiat va uning biologik xilma-xillik resurslaridan zavq-shavq olgan insonda albatda, bu ob'ektni asrash istagi paydo bo`ladi. Shu bilan birga ekologik turizm rivojlanishiga sabab bo`lgan boshqa sabablar ham bor. Jumladan ekologik inqirozning sayyoraviy tus olganligi insoniyatni tobora tashvishga solmoqda. Ekologik muammolarning dunyo miqyosida haddan tashqari og`irlashib kelayotganligi zamirida tabiatning o`zini-o`zi tiklash kuchi pasayib borayotganligi, uning resurslari kamaygani, atrof muhitning ifloslanib, zaxarlanib borayotganligi, insoniyatning bir me'yorda sog`lom yashashigi tabiat to`liq sharoit yarataolmayotganligi yotadi.

Demak ekologik va rekreatsiya turizmlarini rivojlantirish yo`li bilan sayoramiz tabiyatini sahlab qolish ham umumbashariy masalalardan hisoblanadi. Shul nuqtai nazardan qaralganda ekologik turizmni va rekreatsiya turizmlarini rivojlantirishda ekologik turizm resurslarini rayonlashtirish hozirgi turizmni rivojlantirish rejalaridagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbli-ekologik va rekreatsiya turizmlarini rivojlantirishda bu turizm resuslarini turizmda foydalanish masadida va ularning rang-barangligi va ekoturistlarning o`z hohish va ehtiyojlariga qarab tanlashini engil amalga oshirish uchun ekologik va rekreatsiya turizmlari resurslarini

rayonlashtirishni o`rganish turizmni rivojlantirishdagi kun tartibidagi masalalardan ekanligidir.

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti.** Tadqiqotning **ob'ekti** Jizzah viloyatining tabiiy va rekretsya pesurslari hamda **predmeti** bo`lib ekoturizmni rivojlantirish mumkin bo`lgan hududlar va ulardagi ekoturistik inshootlar hisoblanadi.

**Tadqiqot ishning maqsadi** – Jizzax viloyatida ekologik turizmlarini rivojlantirish uchun viloyatdagi ekologik va rekretsya turizmi resurslarini rayonlashtirishdan iborat.

### **Tadqiqot ishning vazifalari -**

- Mamalakatimizda ekologik va rekretsya turizmlarining ijtimoiy – iqtisodiy mohiyati va ushbu turizm turlarini rivojlantirishning hozirgi holatiga baho berish;
- Jizzax viloyatida ekologik va rekretsya turizmlarini rivojlantirishdagi muammolarni o`rganish va ularni hal qilishning asosiy yo`nalishlarini ishlab chiqish;
- Jizzax viloyatida ekologik turizm resurslarini aniqlash, ularning ro`yxatini, ta'rif, tavsifini yaratish;
- Ekologik va rekretsya turizm resurslaridan turizmni samarali rivojlantirish imkoniyatlarini ishlab chiqish;

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Jizzax viloyatitumanlari geografik joylashuvi va iqlim sharoiti tabiiy resurslariga ya`ni ekologik va rekretsya darajalariga ko`ra ekoturistik rayonlarga bo`lib chiqiladi.

### **Mavzu bo`yicha qisqacha adabiyotlar tahlili.**

Tadqiqot ishida Хамидов О.Х. Ўзбекистоннинг экотуристик салоҳияти.

Монография.-Т.: ФАН. 2010., 25. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006, hamda viloyatdagi alohida qo`riqlanadigan hududlar xodimlari xisobotlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotda qo`llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi:** Solishtirma – geografik, Kartografiya, statistika, rayonlashtirish va zamonaviy kompyiter vositalari dasturlari.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati;**

- Jizzax viloyattida turizm ihftastrukturasining rivojlanishida hududlarning ekoturistik imkoniyatlarini hisobga olib hoida dasturlar tayyorланади;
- Ekoturistik va rekretsiya hududlarini ekologik holatini tahlil qilishda ekoturistik rayonlar darajasida tahlil qilinadi;
- Jizzax viloyatining 2013-2015 yillarga mo`ljallangan turizm dasturini dajarisda natijalari taxlil etilganida ekoturistik rayonlar nuqtai nazaridan qaraladi;

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi;** mazkur ish ekologikva rekretsiya turizmi resurslarini rayonlashtirish yo`nalishlaridagi dastlabki tadqiqotlardan hisoblanadi.

- Jizzah viloyati ekoturistik rayonlarga ajratib chiqildi va har bir ekoturistik rayonga qisqacha tavsif berildi;
- Jizzax viloyati rekretsiya (ziyotargohlar, dam olish maskanlari) hududlari tumanlar darajasida sistemaga solindi va tavsif berildi;
- Viloyatga tashrif buyurgan ekoturistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari haqida tavsiyalar berildi;
- Jizzax viloyatidagi ayrim ekoturistik marshrutlar haqida ma'lumotlar berildi;
- Jizzax viloyatining turistik imkoniyatlari va uni rivojlantirishdagi muammolar bayon etildi;

**Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.**

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati-Jizzax viloyatidagi ekologik va rekretsiya turizmi resurslarining rayonlari haqida va bu rayonlardan ekologik va rekretsiya turizmlarini rivojlantirish bo`yicha turistik firmalar va turistik tashkilotlar,turizmdagi tadbirkorlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi 3 ta bob, harbir bobda 3tadan paragraf savollari, xulosalar, tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati iborat.Ishda.....jadval,.....rasmlar....,...chizma va grafiklar keltirildi.Ishning hajmi....betdan iborat bo`lib kompyuterda sahifalandi.

**Tadqiqot ishi doirasida** Ekologiya xabarnomasi jurnali 9-son, 2013 yil "Noyob o`simpliklar" maqolasi, Самарқанд, 2014 йил, апрель. Ботаника соҳасидаги илмий ва амалий ютуқлар ва долзарб муаммолар илмий-амалий конференцияси тўпламида “Биолэкологик таълимда экосўқмоқларнинг ахамияти” mavzusidagi maqola chop ettirildi, Германия, Стутгарт ш. 2014 yil mart oyida “Деление Джизакской области на екотуристические регионы и факторы ползования им” maqolasi chop ettioldi.

# 1.BOB EKOLOGIYA VA REKREATSIYA TURIZMLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

## 1.1Ekologik va rekreatsiya turizmlarining mohiyati, maqsadi va vazifalari

“Ekologiya” va “ekonomika” so`zlarining ma'nosiga e'tibor bersak, bu so`zlarining umumiy o`zagi “Eko”. “Ekologiya” so`zi grekcha “oikos”-uy va “logos”-fan so`zlaridan hosil bo`lgan. Demak (ekologiya) bu bizning tabiatdagi uyimiz. Ekonomika atamasining ma'nosи-“uy xo`jaligi”(ro`zg`or) yuritish sa'atini bildiradi. Shuning uchun ham, bu ikki fan “uyimizning saqlanishi” va “rivojlanishi”ga yordam berishi kerak. Ekologik turizm esa ekologiya fanining mahsuli hisoblanadi.

Agar biz tabiat bilan “kelishuvda” yashashni, uning ne'matlaridan foydalanishni, go`zalliklaridan zavqlanishni hohlasak uning shartlarini ham qabul qilishimiz, o`z ehtiyojlarimizni qondirish uchun atrof muhitni o`zgartirayotganda muayyan chegaralardan chiqmasligimiz zarur. Ekologik turizmning hayotimizdagi eng zaruriy o`rni shundan iborat.

Ekologik turizmning asl maqsadlari qayd qilingin xulosalarni tashkil qiladi. Ekoturizm o`zining ta'rifini izohlashda birinchi navbatda tabiat qo`ynida bo`lib, uning resurslariga ozor etkazmaslikni ta'minlaydi. Tabiat va uning biologik xilma-xillik resurslaridan zavq-shavq olgan insonda albatda, bu ob'ektni asrash istagi paydo bo`ladi. Shu bilan birga ekologik turizm rivojlanishiga sabab bo`lgan boshqa sabablar ham bor. Jumladan ekologik inqirozning sayyoraviy tus olganligi insoniyatni tobora tashvishga solmoqda. Ekologik muammolarning dunyo miqyosida haddan tashqari og`irlashib kelayotganligi zamirida tabiatning o`zini-o`zi tiklash kuchi pasayib borayotganligi, uning resurslari kamaygani, atrof muhitning ifloslanib, zaxarlanib borayotganligi, insoniyatning bir me'yorda sog`lom yashashigi tabiat to`liq sharoit yarataolmayotganligi yotadi.

Shuning uchun ham Butun Jahon Turizm Tashkilotlarining-“tabiiy xududlarga mas'uliyat bilan sayohat qilish natijasida ekoturistlar faoliyati

tabiatni muhofaza etishni ta'minlaydi va mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilaydi”-degan ta'rifi birinchi navbatda xalqning ijtimoiy xolatining yaxshilanishiga qaratilgan.

Bu haqda tabiatning tobora zaiflanib borishi ham ekoturizmda tabiatni asrab qolish g`oyalarining kuchini oshirib boradi. Shu nuqtaiy nazardan ekologik bilim va ekologik madaniyatning shakllanishi ekoturizmning rivojlanishini ta'minlaydi.

Insonda ekologik bilim va ekologik madaniyatning shakillanishida tabiat qonunlarininig mohiyatini anglash, insonning o`zi ham tabiatning biologik turi ekanligini tushunib olishidir. Tabiat vayron (g`orat) qilinganda ham yashayveradi. Masalan, o`rmonlar kesilib ketsa, xavo, suv zaxarlansa, ifoslansa, hayvonat dunyosi qirilib ketsa va h.k.lar lekin inson tabiatsiz yashay olmaydi.

Insonda insoniy fazilatlarning kamol topishida tabiatning tarbiyaviy ahamiyati deyilganda, sof tabiatning kishilarda oljanoblik, xushfellik, bag`rikenglik, vatanparvarlik, ulug`vorlik, muloyimlik kabi axloqiy xislatlarni uyg`otishi va shakllantirishi xususiyatlari tushuniladi. Tabiat qo`ynida tez-tez bo`lib turish insoniy fazilatlarning kamol topishiga yordam beradi.

Ekoturizm muxlislarning eng ulug` xislatlari ham ularni tabiat bag`riga chorlagan xususiyat ham aslida ana shundan iboratdir. Inson o`z uyi bo`lgan tabiatga qancha ko`p zarar etkazar ekan uning o`zi ham ma'naviy jihatdan qashshoqlashib boradi. Tabiatni asrab qolishdek og`ir muammoni echishda insonni ekologik savodxon, ekologik madaniyatli qilib tarbiyalashda ?am ekoturizmning ahamiyati beqiyosdir. Ekologik savodxonlik va ekologik madaniyatning asosi ekologik ong hisoblanadi. Ekologik ong tabiatni asrab-avaylashda, unga ongli munosabatda bo`lishida, resurslaridan me'yorida foydalanishda, tabiat inqirozinining oldini olishda, eng zaruri atrof-muxitni doimo toza saqlashda namoyon bo`ladi.

Ekoturizmning ta'rifini keltirishda xalqaro ekologik tashkilotlar, Butunjahon turizm tashkiloti qayd qilgan muhim omilni hisobga oladi va tabiatni asrab olishda ekoturizmni rivojlantirishni eng muhim omillardan biri deb hisoblaydi.

Insonda ekologik bilim va ekologik madaniyatni shakillantirishda quyidagi tamoyillar ma'nosini o`rganish, tushunish va amaliyotda (o`zida) qo`llash tushuniladi:

- Tabiatni – “Ona er” deb ardoqlash.
- Bizga ma'lum bo`lgan “Olamda” birorta ham er sayyorasining tabiatiga o`xshash tabiat va xayot shaklining mavjudligi aniqlanmaganligi.
- Tabiatning iqtisodiy ahamiyati deyilganda, undagi resurslardan moddiy manba sifatida foydalanishni tushunish.
- Tabiatning ilmiy ahamiyati deyilganda insonning barcha bilimlari negizida tabiatning jarayonlari asos bo`lishi.
- Tabiatning sog`lomlashtirish ahamiyati deganda sof tabiat boyliklarining va shifo beruvchi tabiiy modda va jarayonlarining inson salomatligiga ijobjiy ta'sir etishi.
- Tabiatning tarbiyaviy ahamiyati deganda sof, haqiqiy tabiatning kishilarda olijanoblik, xushfellik, vatanparvarlik, ulug`vorlik, muloyimlik kabi axloqiy xususiyatlarini uyg`otish va shakllantirish xususiyatlari tushuniladi.
- Tabiatning estetik ahamiyati deyilganda-insondagi barcha go`zallik, mukammallik, musiqa, tasviriy san'at, kuy-navo xislari va ularga bo`lgan ehtiyojlar tushuniladi.
- Tabiat-inson-jamiyat yaxlit,bir yagona tizimdir.

Demak, hayotda ham, har qanday ishlab chiqarish sohasida ham ekologik bilim va ekologik madaniyatning shakllanishida mamlakatimizda ekologik turizmni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ekologik bilim va ekologik madaniyatni shakillantirishni quyidagi tizimda amalga oshirishda tavsiya qilinadi:

Ekologik ta'lif-sayyoramiz tabiiy boyliklari va yaqin fazoga ehtiyyotkorona munosabatda bo`lishi, insoniyatning tabiatdagi ekologik jarayonlar bilan uzviy bog`liqligini chuqur anglash ruhida tarbiyalash va boshlang`ich o`qitish.

Ekologik madaniyat-hozirgi va kelajak avlod hayotida ekologik muammolar juda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglagan davlatlar va jahon madaniyatining rivojlanish bosqichi va tarkibiy qismi.

Ekologik tarqibot-tabiyy boyliklarni maksimal holatda saqlab qolishni ta'minlovchi faktlar, qarashlar va g`oyalarni ommaviy axborot vositalari (gazeta, radio, tv, jurnal, ma'ruzalar, internet) orqali yig`ish va keng chegaralarda tarqatish.

Ekologik o`quv-kishilarda ekologik dunyoqarashni shakllantiradigan va tabiatda insonlarning tutgan o`rni haqidagi bilimlar bilan qurollantiradigan, tabiiy tizimlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi har bir insonning baxti saodatidagi ahamiyatini tushuntrishga qaratilgan ekologik tarbiya, ta'lim, ma'lumot va targ`ibot majmui.

Ekologik huquq, ekologik savodxonlik va ekologik bilim har – bir ishlab chiqarish yoki ta'lim sohasiga moslashtirilmaydi balki, insonning komil inson bo`lib etishiga da'vat qiladi. Ekoturizmning o`rnini belgilashda asoslandiki, insoniyat oldidagi ekologik inqirozni to`xtatish va bartaraf qilishning eng samarali yo`li umuminsoniyatda ekologik huquq, ekologik tarbiya va ekologik bilimni shakllantirishdir. Ekoturizmda ekologik tarbiya, ekologik bilim va madaniyatni shakllantirishda birinchi navbatda ekologik boshqaruva tizimini ishlab chiqish zarur bo`ladi.

Ekologik boshqaruva tizimi turizmning sohalari, tarmoqlari bo`yicha har-xil yo`nalishlarda bo`lishi mumkin. Lekin “Ekoliya” fanining predmeti bu fanning yangi tarmoqlari yo`nalishlari yuzaga keganida ham o`zgarmasdan qolishi ma'lum, o`zgarish mumkin ham emas.

Alovida ta'kidlash lozimki, ekologik tarbiya, ekologik bilim va ekologik madaniyat ishlab chiqarish sohalariga qarab o`zgarmaydi, balki ekologik bilimli, ekologik madaniyatli kishi o`z bilimlari yordamida o`zi ishlayotgan sohani ekologiyalashtiradi. Shu o`rinda ham mamlakatimizda ekologik turizmni rivojlantirish maqsadli, istiqbolli yo`nalish bo`lib qolishi insonni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ekoturizmning mamlakat ijtimoiy – iqtisodiy hayotidagi o`rnini belgilashda yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlar, tadqiqotlar natijasida quyidagi umumlashgan xulosalar kelib chiqadi. Ya'ni rivojlanishida ekoturizm faoliyatining ijtimoiy hayotidagi o`rni quyidagicha izohlanadi:

- Turistlar bilimini, madaniyatini, ma'naviyatini umummadaniy, tabiiy ilmiy, ekologik bilim va ekologik xavfsizlik bilimlari bilan tabiatning o`zida boyitish va shakllantirish.
- “Shahardagi” stress-charchoq holatdan chiqish va ehtiros, hissiyotlarni tiklash, sog`lomlashtirish.
- Turistlarda notanish xalqlarning milliy yashash tarziga, milliy urf-odatlariga, marosimlariga, vataniga do`stona mehr-oqibatlarini shakllantirish.

Ekoturizmning mamlakat iqtisodiy hayotidagi o`rni esa ekoturizmning tamoyillaridan kelib chiqib, ya'ni ekoturizmdan keladigan mablag` tabiatni muhofaza qilish, noyob biologik resurslar, biologik xilma-xillikni saqlab qolishga qaratilganligi bilan juda muhimdir. Shuning uchun ham ekoturizmning mamlakat iqtisodiy hayotidagi o`rnini quyidagicha belgilash mumkin. Bu tamoyillar ekoturizmning ijtimoiy tamoyillariga qo`shiladi va ekoturizmning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida istiqbolli yo`nalish bo`lishini isbotlaydi.

Biroq shunday bo`lsada O`zbekiston dagi boshqa sayyoqlik yo`nalishlari ya'ni tarixiy turizm ( 60 %) va Buyuk ipak yo`li turizmiga (20 %) nisbatan Ekologik turizm (0,3 %) sezilarli darajada kam foiz ko`rsarkichga ega ekanligi tadqiqotlardan ma'lum bo`lmoqda(1.1-jadval).

## **1.2.Ekologik va rekreatsiya turizmni rivojlantirishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy shayotidagi o`rni va ahamiyati.**

Turizmning roli aniqlanganda yana bir muhim, asosiy jihatlarga e'tibor berish lozimki, turizm ijtimoiy sohaning bir qismi bo`lib, uning asosiy faoliyatlarida iste'molchilarga iste'mol jarayonida moddiy va nomoddiy muhitni

yaratish uchun xizmatlar qilish, dam olish va faoliyat ishlarini o`zgartirish, almashtirish uchun sharoitlar yaratish, sog`lig`ni muhofaza qilishni ta'minlash, shuningdek, aholining umumiyligi ma'lumoti va madaniy texnik darajasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtida dam olishni tashkil qilish, insonning hayotiy kuchlarini tiklash, bo`sh vaqtidan unimli, to`g`ri foydalanishni ham turizm sohasi ta'minlamoqda. Shuningdek, turizm shaxsning rivojlanishida, barkamolligida, sayohatining intellektual darajasini oshirishda insonning jamiyatda o`rnini anihlashda, shaxs sifatida tavfsifini berishda muhum ahamiyat kasb etadi.

“Ijtimoiy” so`zi o`zbek tilining izohli lug`atida 5 ta ma'noda berilgan

1. Kishilik jamiyatining, uning hayoti va qonuniyatlariga oid fan.
2. Biror ijtimoiy tabaqa yoki snifga mansub fan, yo`nalishi.
3. Kishilarning jamiyatdagi faoliyati bilan bog`langan, jamiyatga, jamoatchilikga oid fan, yo`nalish.
4. Jamiyatning, ommaning siyosiy madaniy va boshqa ehtiyojlari uchun ixtiyoriy ravishda xizmat etish bilan bog`langan fan yoki yo`nalish.
5. Ommaga, umumga tegishli, umumiyligi, birgalikda, ko`pchilik kuchi bilan bajariladigan soha.

Ijtimoiy so`zining qayd qilingan izohlaridan kelib chiqadigan ma'no shundan iboratki, ijtimoiy masalalar insonlarning hayoti va rivojlanishi qonuniyatlar, jamiyatdagi faoliyatini, o`rnini belgilashdagi xususiyatlaridir. Bu erdagagi umumiylilik, bog`langanlik so`zlari insoniyat jamiyatining atrof-muhit va jamiyat qonunlarini o`z vaqtida ilg`ab olish va ushbu qonunlar asosida yashash tarzi tushunilmoqda.

Ekologik muammolar sayyoraviy tus olgan hozirgi vaqtida ekoturizmning mamlakat hayotidagi o`rni qanday bo`lmoqi kerak? Ana shu savolga javob va isbotlar yozish tanlangan mavzuning mezonlarini belgilaydi.

Mamlakatimizda ekologik va rekreatsiya turizmni rivojlantirishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o`rnini belgilashda aynan, ekologik va rekreatsiya turizmlarning halqimizning birinchidan, tabiat va uning boyliklariga

ikkinchidan, uning e'tiqodi, ishonchi, o`tmishidagi yo`lboshchilariga ishonchi, sadoqati, suyanishi, tabiiy va insoniy hulq-atvorni avaylashi tushunilmog'i lozim bo`ladi. Shuningdek, insonning kamol topishida tabiatni anglash, jamiyat qonun-qoidalarini bilishi uning hayotidagi birinchi darajali ehtiyojlar hisoblanadi.

Ekoturizmning mamlakat ijtimoiy xayotidagi o`rnini belgilaganda tabiatning inson-turist xayoti uchun bo`lgan ahamiyatlari ko`rsatkichlarini keltirish lozim bo`ladi. Ekoturizmning ahamiyatini turistning ehtiyojlarini qondirish jihatlariga qarab ma'naviy, iqtisodiy, sog`lomlashtirishi, tabiatni anglash tarbiyaviy va estetik gurug`larga bo`lishimiz mumkin. Bu guruhlarning tavfsifi faqat turist uchun emas umuminsoniyat xayotidagi tabiatning o`rmini xam anglatadi.

Xozirgi vaqtida O`zbekistonda ekologik turizm yizasidan taqdim qilinayotgan turistik mahsulitlarni etarli darajada deb bo`lmaydi. Ya'ni ekoturizm yo`nalishida ishlab chiqilayotgan va taqdim qilinayotgan turistik paketlar tariziy turizm-80 %, rekretsion turizm 68 % folklor - etnografik turizm va boshqa yonalishlaridan so`n eng past 9 % ni ko`rsatmoqda(1.2-jadval). Bunga quyudagi holatlarni sabab qilib ko`rsatishimiz mumkin:

1. Ekoturizm yo`nalishida keng miqiyosda faoliyat yurituvchi menejmenlarning etarli emasligi
2. Turistlarni qabul qilishda faollik hozircha zaif bo`lib, bunga sabab jo`ylarda mahalliy aholining boshlang`ich mablag`lari yo`qligi, shuningdek, ularda turizm soxasida bilim va ko`nikmalarning etishmasligi.
3. Alovida qo`riqlanadigan hududlar hodimlari orasida turistlarni qabul qilish va ularga servis xizmati ko`rsatishda alovida malakali kadrlar etishmasligi, shuningdek, bu borada tashkiliy ishlar xam yaxshi yo`lga qo`yilmaganligi.
4. Mahalliy aholi va viloyatdagি alovida qo`riqlanadigan hududlar hamda turizmni rivojlantiruvchi organlar o`rtasida o`zaro aloqa va qo`llab quvvatlash mexanizmi shakllanmaganligi.

Shuningdek, O`zbekistonda sayyoohlarga ko`rsatilayotgan servis hizmaltlarning ijobiylari va salbiy ko`rsatkichlari ham (1.3 va 1.4-jadvallar) ekoturizmning rivojlanishiga va rtarli darajada rivojlanmay qolishiga ham ta'sit etmoqda.

### **1.3. Ekoturizmda marshrutlar tuzish va Jizzax viloyati ekohudulari ekomarshrutlari.**

Turistik marshrutlar haqida tushuncha. marshrutlar, turlar, ekskursiya dasturlarini shakllantirish, asosiy, qo'shimcha va yo'ldosh xizmatlar ko'rsatish turistik xizmat ko'rsatish texnologiyasini tashkil etadi, ya'ni bu turistik xizmatga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun muayyan turistik mahsulotni shakllantirish demak.

Marshrut – bu:

- sayohat paytida turist tashrif buyuradigan barcha jo'g'rofiy joylar belgilangan, marshrutda to'xtash joylari o'rtasida harakatlanish uchun turist foydalananadigan transport turlari ko'rsatilgan harakat yo'nalishi;
- turist o'ziga belgilangan xizmatlar ko'rsatish dasturiga muvofiq ma'lum vaqt mobaynida harakatlanuvchi oldindan rejalashtirilgan trassa;
- muayyan hududga va alohida ob'ektlarga bog'langan, turli darajadagi mufassallik bilan tavsiflangan va grafik tarzida ifodalangan safar, sayohat trassasi.

Turistik marshrutlar – turistlarga ko'rsatiladigan xizmatlarning asosiy turlaridan biri. Turistik tashkilotlar marshrutlarni oldindan ishlab chiqadi, ularga ma'lum xizmatlar (ovqatlanish, yashash, ekskursiyalar, sport va dam olish tadbirlari, turistlarni transportda tashish va b.) kompleksini kiritadi va shu tariqa turistik marshrutlarni shakllantiradi. Biroq, safar joyini aniqlamasdan turib turistik marshrutni sotish mumkin emas. Marshrut tuzilganidan keyin xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar bilan shartnomalar tuziladi. «Xizmatlar ko'rsatish

zanjiri» hosil bo‘lishi uchun ularni muayyan muddatlarga bog‘lash lozim. Mana shu «xizmatlar ko‘rsatish zanjiri» turizmda tur deb ataladi.

Turistik marshrut yoki sayohatning qisqacha tavsifi – kroki (rasmlar, xaritalar, sxemalar, ob’ektlarning matnli tavsifi). Sayohatchi faoliyatining mohiyati - sayohat haqidagi qaydlar – sayohat jarayonida kelgusida xotira sifatida yoki mazkur marshrutni takrorlashda qo‘llanma tarzida foydalanish uchun yoki shu marshrut bo‘ylab sayohat qiladigan yoki mazkur ob’ektlarga tashrif buyuradigan boshqa turistlar va sayohatchilar uchun tuzilgan turistik marshrut yoki sayohatning qisqacha tavsifi.

Sayohat boshlangan va yakunlangan joylar marshrutning dastlabki va oxirgi nuqtasi hisoblanadi. Marshrutning boshi – turistga shartnomada nazarda tutilgan birinchi turistik xizmat ko‘rsatiladigan joy. Marshrutning oxiri – turistga oxirgi turistik xizmat ko‘rsatiladigan joy.

Turistik marshrutlarning turlari. Turistik marshrutlar turli belgilarga ko‘ra tasniflanadi. 1. Turlariga ko‘ra quyidagi marshrutlar farqlanadi:

- tematik marshrutlar – dasturida ekskursiya xizmatlari ko‘rsatish va muayyan mavzuda ma’rifiy mashg‘ulotlar o‘tkazish (muzeylarga kirish, xalq bayramlarida ishtirok etish, til o‘rganish va h.k.) asosiy o‘rinni egallagan turlar;
- kurort-sog‘lomlashtirish marshrutlari – dasturida dam olish va sog‘lomlashtirish tadbirdari (kurortda davolash, profilaktik davolash, dengiz bo‘yida dam olish, fitoproseduralar va h.k.) asosiy o‘rinni egallagan turlar;
- sport marshrutlari – dasturida sport tadbirdari yoki faol harakatlanish usullari (safarlar va sayrlar, tog‘ chang‘isida uchish, veloturlar, rafting, sarguzashtli ekspedisiyalar va b.) asosiy o‘rinni egallagan turlar;
- aralash marshrutlar – xizmat ko‘rsatish dasturidan yuqorida zikr etilgan barcha marshrutlarning unsurlari o‘rin olgan marshrutlar.

2. Mavsumiylik jihatidan quyidagi marshrutlar farqlanadi:

- yil bo‘yi o‘tkaziladigan marshrutlar – yillik ish grafigiga ega bo‘lgan turistik marshrutlarning barcha turlari;

• mavsumiy marshrutlar – yilning ma'lum faslida o'tkaziladigan marshrutlar (chang'i, suv, tog' marshrutlari va h.k.). Masalan, daryo bo'y lab teploxfordagi turlar faqat navigasiya davrida o'tkazilishi mumkin.

3. Trassa tuzilishiga ko'ra chiziqli, halqali, radial va aralash marshrutlar farqlanadi. CHunonchi:

• chiziqli marshrut – boshi va oxiri turli jo'g'rofiy punktlarda joylashgan harakat yo'nalishi. Masalan: Moskva – Sankt-Peterburg.

B → OP-1 → OP-2 → O

Ko'pincha turist belgilangan joyga etib kelgach, bir mehmonxonada yashaydi, bir hudud doirasida ekskursiyaga va boshqa safarlarga chiqadi. Bunday marshrut har kuni yukini yig'ish va chamadonlar yoki ryukzaklarga joylashtirishni, mehmonxonama-mehmonxona ko'chib yurishni yoqtirmaydigan turistlar uchun qulay;

• Halqali marshrut – boshi va oxiri bir jo'g'rofiy punktda joylashgan, marshrutda bir necha punktlarda to'xtash mo'ljallangan harakat yo'nalishi. Masalan: «Rossiya oltin halqasi» (Moskva – Sergiev Posad – Rostov Yaroslavskiy – Yaroslavl – Ivanovo – Suzdal – Vladimir – Moskva).

B              OP-1              OP-2              OP-3              O

• Radial marshrut – boshi va oxiri bir jo'g'rofiy punktda joylashgan (stasionar), unda yashab turib, turist boshqa punktlarga safar qiladigan va sayohatni boshlagan joyga qaytib keladigan harakat yo'nalishi.

OP-1              B              OP-2              O              OP-3

Misol uchun: Turistlar Misrdagi Xurgada kurortiga tashrif buyuradi va ikki kundan keyin Qohira va Gizaga ikki kunlik safarga yo'l oladi. SHu ikki kunlik ekskursiya davrida turistlarning Xurgadadagi mehmonxonada egallagan o'rni saqlanib qoladi.

• Aralash marshrut – chiziqli, halqali va radial marshrutlarni muayyan tarzda o'zida mujassamlashtirgan harakat yo'nalishi.

OP-2

↑↓

B → OP-1 → OP-3 → O

↓↑

OP-4

(B – marshrutning boshi, O – marshrut oxiri, OP-1 – OP-4 – marshrutda to‘xtaladigan oraliq punktlar).

Halqali marshrutda mamlakatga tashrif buyurish joyi yoki hudud:

- o‘zgarmas bo‘lishi, ya’ni mamlakat bo‘ylab sayohat bir joyda boshlanishi va ayni shu joyda yakunlanishi;
- alohida bo‘lishi, ya’ni bir joyda boshlanib, boshqa joyda yakunlanishi (krossing-tur) mumkin.

4. Davomiyligiga ko‘ra quyidagi marshrutlar farqlanadi:

- ko‘p kunlik (14-30 kunlik) marshrutlar;
- bir necha kunlik (1-3 kunlik) marshrutlar – dam olish kunlarida tashkil etiladigan marshrutlar;
- bir necha soatlik marshrutlar (ekskursiyalar).

5. Marshrutdagi transport turiga ko‘ra:

- turistik firmaning o‘z transportidagi marshrutlar – turistik firma yoki kompaniyaning transport xo‘jaliklari ixtiyoridagi transportda o‘tkaziladigan turlar;
- boshqa tashkilotlardan ijaraga olingan (fraxt qilingan) transportdagi marshrutlar – turistik tashkilotlar (shartnomaga ko‘ra) tur muddatiga yoki xizmat ko‘rsatish mavsumiga ijaraga olib foydalanayotgan transportda o‘tkaziladigan turlar. Ijaraga olingan maxsus transport vositalari sifatida turistik tashkilotlar dengiz va daryo teploxdolaridan, turistik-ekskursion poezdlarning maxsus tarkiblari, avtobuslardan foydalanadi;

- turistik shaxsiy transportidagi marshrutlar – avtohavaskorlar (shaxsiy avtomashina egalari) uchun maxsus ishlab chiqilgan yakka tartibdagi yoki gruppaviy turlar. Bunda turistlarga marshrut davomida barcha xizmatlar (avtokempinglarda yashash, ovqatlanish, ekskursiyalar, dam olish, avtomobilni ta'mirlash va b.) ko'rsatiladi;
- umumiy foydalaniladigan transportdagi marshrutlar – turistlarni yo'lovchi huquqida tashishga mo'ljallangan grafikli yo'lovchi transportida o'tkaziladigan turlar. Umumiy foydalaniladigan transportga grafik bo'yicha qatnaydigan poezdlar, yo'lovchi tashiydigan samolyotlar, teploksodlar, avtobuslar kiradi.

- Harakatlanish usullariga ko'ra:
- avtobusdagi marshrutlar;
- teploksoddagi marshrutlar (dengiz, daryo marshrutlari);
- aviasiya marshrutlari;
- temir yo'l marshrutlari;
- aralash marshrutlar farqlanadi.

#### 7. Marshrut mazmuniga ko'ra:

- tabiat qo'ynida dam olish;
- dengiz bo'yida dam olish;
- tog'da dam olish;
- dam olish va baliq ovi farqlanadi.

*Jizzax ekohududi bo'yicha marshrutlar tuzish.*

Yakka tartibdagi turistlar uchun ham, guruhlар uchun ham chet el turistik firmasining yoki turistlarning buyurtmasiga binoan ekoturni ishlab chiqish. Bunday hollarda turistik tashkilotlar turistik firmalardan buyurtmalarni qabul qilib olishda tanlangan marshrut bo'ylab turistlarni transportda tashish va ularga kompleks xizmat ko'rsatishni ta'minlash bo'yicha o'z imkoniyatlarini aniqlaydi. Bunday imkoniyatlar bo'lgan taqdirda ular zarur bronlashtirishni amalga oshiradi va buyurtma bergan firmaga tur qabul qilinganini tasdiqlaydi. Ko'pincha firmalarning buyurtmalariga ko'ra ayni bir turdan ketma-ket keladigan bir necha guruhlarni qabul qilish uchun foydalaniladi. Bunday

hollarda turistik tashkilotlarning roli passiv bo‘lmasligi kerak. Firmalarning buyurtmalarini ko‘rib chiqishda marshrutni yaxshilash yuzasidan qarshi takliflar bilan chiqish, kompleks xizmatlar ko‘rsatish tarkibini qiziqarli ekskursiyalar va boshqa xizmatlar bilan to‘ldirish tavsiya etiladi.

2. O‘zbekiston Respublikasi va MDH mamlakatlarining turistik tashkilotlari tashabbusiga ko‘ra turlar ishlab chiqish. Bunda taklif qilinayotgan shaharlarga tashrif buyurishga chet ellik turistlar orasida talablar mavjudligi va mazkur shaharlar mehmonxona bazasining sig‘imi asosiy shartlar hisoblanadi. Bizning turistik tashkilotlarimiz tashabbusi bilan quyidagi turlar ishlab chiqilishi mumkin:

- chet ellik turistlarning yakka tartibdagi safarlari uchun mo‘ljallangan turlar. Bu odatdagi standart turlar yakka tartibdagi turistlar orasida mashhur bo‘lgan marshrutlar bo‘ylab tashkil etiladi. Yakka tartibdagi turistlarni ko‘proq jalg qilish uchun standart turlarda ularga ma’lum imtiyozlar berilishi mumkin. Turistik firmalar tomonidan taklif qiluvchi “ctop ouver” yoki “Kart blank” turlari shular jumlasidan;

- chet ellik yakka turistlar guruhi tarkibida (arzonroq narxlarda) safar qilishi uchun mo‘ljallangan turlar. Bunday guruhi marshrutdagi birinchi xizmat ko‘rsatish punktida shakllantiriladi. Bu standart marshrutlarga ega bo‘lgan, boshlanish va yakunlanish sanalari qayd etilgan turlardir. Bunday turlar boshqa mamlakatlarning turistlariga va har qanday xorijiy firmalarga ochiq. Yagona cheklash – har bir guruhdagi o‘rinlar kvotasi (30 kishigacha) va ekskursiyalar o‘tkaziladigan tilni bilish. Qayd etilgan sanali turlardan chet el turistik firmalaridan belgilangan miqdor doirasida alohida guruhlarni qabul qilish uchun ham foydalanimishi mumkin;

- mehmonxona bazasidan va transport vositalaridan yanada samarali foydalanish, shuningdek chet ellik turistlar sayohatlarining geografiyasini kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining turistik tashkilotlarida SET-turlar (tarmoq grafiklari bo‘yicha) va blok-turlar ishlab chiqishga katta e’tibor beriladi. Bunday turlarda muayyan mintaqalarning turistik markazlari bir

necha standart marshrutlari bilan bog‘lanadi, turistlarni tashish uchun transport vositalarining turlari belgilanadi va dasturlarda asosiy ekskursiya tadbirlari – “tur durdonalari” qayd etiladi. Chet el turistik firmalariga SET-turlar va blok-turlarning umumiy ro‘yxatidan istalgan ma’qul variantni tanlab olish, marshrut bo‘ylab muayyan shaharlarda bo‘lish sanalarini kelishish va muddatlarni uzaytirish, qayd etilgan sanali qo‘srimcha turlarni kiritish imkoniyati beriladi. Turistik tashkilotlarning tashabbusiga ko‘ra SET-turlar va blok-turlar tashkil etish ularning turistik mahsulot yaratish borasidagi faoliyatining ancha yuksak shaklidir. Bu ish mukammal kasbiy bilimlarni, katta tajribani taqozo etadi va faqat turistik xizmatlarga bo‘lgan talabni va turistik xizmatlarning iste’mol xossalarni chuqur tahlil qilish asosida qo‘llanilishi mumkin.

Shunday qilib, muayyan ekoturistik marshrutlarni ishlab chiqish quyidagilarni taqozo etadi:

- mehmonxona bazasining hamda korxonalari marshrut bo‘ylab yo‘lovchi tashish vositalari to‘g‘risida tuzilgan bitimlarga asosan taqdim etuvchi bo‘sh o‘rinnarning mavjudligi, tegishli tashkilotlar tuzilgan bitimlarga asosan taqdim etuvchi transport vositalarida bo‘sh o‘rinnarning mavjudligi haqidagi axborotga to‘liq ega bo‘lish va ulardan foydalana bilish;

- ekoturistik namoyish ob’ektlari (tabiiy muzeylar, qo‘riqhonalar va zakazniklar) haqida, ularning ish vaqtini to‘g‘risida axborotga to‘liq ega bo‘lish.

Firmadan gruppaviy turni bronlashtirishga buyurtma (masalan, 45 kishiga, Toshkent – Jizzax –Zomin- Toshkent marshruti bo‘yicha) olingan holda quyidagi holatlarga aniqlik kiritish lozim:

- har bir shaharda bo‘lish sanasi va muddatlari, misol uchun: Toshkent – 1-5 iyul, Jizzaxda – 5-8 iyul, Zominda – 8-11 iyul, Toshkent – 11-12 iyul). Mazkur sanalarga muvofiq turistik firma mehmonxonalarda zarur o‘rinlar mavjudligini aniqlashi va ularni bronlashtirishi shart;

- marshrut bo‘ylab transportda tashish turlari (misol uchun, guruh samolyotda Toshkentga uchib kelishi va so‘ngra butun marshrut bo‘ylab mikroavtobusda safar qilishi).

Turistlarning tashrif buyurish va jo‘nab ketish vaqtiga va ko‘rsatilgan reyslarga muvofiq (marshrut bo‘ylab) shaharlarda mehmonxona nomerlarini bronlashtirish sanalari va vaqtani aniqlab olinadi. Bunda mehmonxonada amal qiluvchi hisoblash soati (12 soat) hisobga olinadi. Firma 5.07 ga o‘tar kechasi Toshkentdan Jizzaxga olib boradigan transportni buyurtma qilishi mumkin. Bu holda Jizzaxdagi mehmonxonani bronlashtirish sanasi 5.07 dan 6.07 ga o‘zgartiriladi. Turistlarni marshrut bo‘ylab tashishning boshqa variantlari ham bo‘lishi mumkin. Bunda har qanday marshrutni bajarishning bosh sharti uni mehmonxona o‘rinlarini va tashish vositalarini tegishli tarzda bronlashtirish bilan ta’minlash hisoblanadi.

### 1.3.-jadval

#### Turoperatorlar tomonidan ekoturistik marshrutni baholash hisobi

(Toshkent –Jizzax-Zomin-Toshkent ekoturistik marshruti bo‘yicha)

Nº	Ekoturga kiritilgan xizmatlar	Xizmatlar qiymati	Jami
1.	Mehmonxonada joylashtirish, vannali yoki dushli nomerlarda	20000 so‘m x 8 kecha	160000
2.	2 mahal ovqatlanish (nonushta, kechki ovqat)	10000 so‘m x 8 kecha	80000
3.	Transferlar (uchrashuvlar va kuzatishlar, jami 4 marta)	Avtobusni ijaraga olish 25000 so‘m / soat x 4 soat  100000 so‘m : 20 kishi = 5000 so‘m.  Bagajni tashish – 1000 so‘m.  Jami: (5000 so‘m + 1000 so‘m) x 4 marta = 24000 so‘m	24000
4.	Ekskursiya xizmatlari ko‘rsatish (avtobusda gid-tarjimon bilan 4 ekskursiya)	Ekskursiya xizmatlari ko‘rsatish (avtobusda gid- tarjimon bilan 4 ekskursiya)	8000
5.	Toshkent – Jizzax marshruti	25000 so‘m	

	bo‘yicha temir yo‘l chiptasi bilan ta’minlash (firma poezdi, kupe vagoni)		
6.	Guruhning rejadan tashqari kuzatuvchisini qabul qilish	Mehmonxona – 16000 Ovqatlanish – 8000 so‘m t/y chiptasi – 2000 so‘m Jami: 26000 so‘m : 20 kishi = 1300	1300
7.	O‘z kuzatuvchisiga xarajatlar	Jizzaxdagi mehmonxona 20000 so‘m x 4 kun = 80000 so‘m  Jizzaxda ovqatlanish 5000 so‘m x 4 kun = 20000 so‘m  Yo‘lkira Toshkent-Jizzax – Zomin- Toshkent 20000 so‘m x 2 dona = 40000 so‘m	
8.	JAMI		273300
9.	Operasion xarajatlar (ijara, mehnat haqi, aloqa, reklama) va rejorashtirilgan daromad, jami 20% miqdorida		20000
10	Jami		293300

Ekskursion marshrutlarni ishlab chiqishda muqobil takliflar katta ahamiyatga ega. Masalan, turistik tashkilot marshrut bo‘ylab shaharlardan birortasida ham mehmonxona o‘rinlarini topa olmasligiga ishonch hosil qilgan bo‘lsa, u firmaga rad javobi bermasligi kerak. Nima bo‘lganda ham muqobil variantni tanlash va firmaga taklif qilish lozim.

O‘sha Toshkent –Jizzax – Zomin – Toshkent marshrutini olaylik va 5.07 dan 8.07 gacha Jizzaxda bo‘sh o‘rinlar yo‘q deb faraz qilaylik. Bu holda firmaga bir necha variantni taklif qilish mumkin:

- muddati o‘zgartirilgan marshrut. Bunda turistlar Jizzaxga u erda bo‘sh o‘rinlar bo‘lgan sanalarda tashrif buyuradi;
- Jizzax o‘rniga boshqa shaharlarga safar qilishni nazarda tutuvchi muqobil marshrut.

Zarur transport vositalarini bronlashtirishda qiyinchilik tug‘ilgan holda muqobil variantlarni qidirish, masalan, ertalabki reysni kechki reysga almashtirish yoki temir yo‘lda tashishni avtobusda tashishga almashtirish kerak.

Shaharlarni o‘zgartirish harakatlari natijasida chet el firmasi o‘zi bilan kelishilgan marshrutni tasdiqlaydi. Bunda butun ekskursion marshrut bo‘ylab safarning boshidan oxiriga qadar mehmonxona o‘rinlari va transportda tashishning bronlashtirilishi ta’minlanadi.

#### Toshkent – Zomin – Toshkent marshrutini tuzish

**Ekoturistik marshrut:** Turist Toshkentdan mikroavtobusda jo‘natiladi va qaytib keladi: Zominda «O‘rikli» dam olish zonasidagi mehmonxonalariga ikki kun muddatga joylashtiriladi; ekskursiyalar – tog‘ bo‘ylab, Zomin tog‘-archa qo‘riqxonasiga, Zomin milliy parkiga va maxalliy aholining xayot tarzi bilan tanishish. Ovqatlanish – uch mahal mehmonxona kafesida va ekomarshrut bo‘ylab. Ekoturistik marshrutning muddati – ikki kun.

Ekotur: Toshkentdan jo‘nash – 1-iyulda mikroavtobusda soat 18.00 da.

Chimyonga etib kelish – 1 iyulda soat 22.00 da.

1-kun – Ertalab «O‘rikli» mehmonxonasida nonushta, Zomin tog‘-archa qo‘riqxonasiga sayr. Butun kun davomida, tushlik – qo‘riqxona teritoriyasida, kechki ovqat – mehmonxonada.

2-kun - mehmonxonada nonushta, Zomin milliy parkiga ekskursiya, mehmonxonada tushlik, bo‘sh vaqt (aholining xayot tarzi bilan tanishish).

Zomindan jo‘nab ketish – mikroavtobusda soat 20.00 da.

Keyingi yillarda Zomin tumani turistik zonaga ailantirish ustida katta ishlap olib borilmoqda. Jumladan tuman markazi barcha talablarga mos ravishda qayta rekonstruksiya qilinmoqda. Zomin turistik hududining brendi ishlab chiqilgan(1.1-rasm). Bukletlar (ilivadagi bukletlar) yaratildi va maxsus [www.zaamin.uz](http://www.zaamin.uz) sayti ishlab turibdi. Chet elliq sayyoohlar ushun xarita (1.2-rasm) yaratilgan.

## I bob bo`yicha xulosalar

Ushbu bob ekologik turizmni rivojlantirishning nazariy asoslarini yoritishga bag`ishlangan bo`lib ekologik turizmlarining mohiyati, maqsadi va vazifalari, ekologik turizmni rivojlantirishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o`rni va ahamiyati hamda ekoturizmda marshrutlar tuzish va Jizzax viloyati ekohudulari ekomarshrutlari haqidagi ,a'lumotlar keltirilgan.

Ekologiya - bu bizning tabiatdagi uyimiz, ekonomika atamasining ma'nosи-“uy xo`jaligi”(ro`zg`or) yuritish sa'atini bildiradi. Shuning uchun ham, bu ikki fan “uyimizning saqlanishi” va “rivojlanishi”ga yordam berishi kerak. Ekologik turizm esa ekologiya fanining mahsuli hisoblanadi.

Ekoturizmnинг mamlakat iqtisodiy hayotidagi o`rni esa ekoturizmning tamoyillaridan kelib chiqib, ya'ni ekoturizmdan keladigan mablag` tabiatni muhofaza qilish, noyob biologik resurslar, biologik xilma-xillikni saqlab qolishga qaratilganligi bilan juda muhimdir. Shuning uchun ham ekoturizmning mamlakat iqtisodiy hayotidagi o`rnini quyidagicha belgilash mumkin. Bu tamoyillar ekoturizmning ijtimoiy tamoyillariga qo`shiladi va ekoturizmning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida istiqbolli yo`nalish bo`lishini isbotlaydi.

Biroq shunday bo`lsada O`zbekistondagi boshqa sayyoohlik yo`nalishlari ya'ni tarixiy turizm ( 60 %) va Buyuk ipak yo`li turizmiga (20 %) nisbatan Ekologik turizm (0,3 %) sezilarli darajada kam foiz ko`rsarkichga ega ekanligi tadqiqotlardan ma'lum bo`lmoqda.

Shuninhgdrk hozirgi vaqtida O`zbekistonda ekologik turizm yizasidan taqdim qilinayotgan turistik mahsulitlarni etarli darajada deb bo`lmaydi. Ya`ni ekoturizm yo`nalishida ishlab chiqilayotgan va taqdim qilinayotgan turistik paketlar tariziy turizm-80 %, rekretsion turizm 68 % folklor - etnografik turizm va boshqa yonalishlaridan so`n eng past 9 % ni ko`rsatmoqda. Bunga quyudagi holatlarni sabab qilib ko`rsatishimiz mumkin:

5. Ekoturizm yo`nalishida keng miqiyosda faoliyat yurituvchi menejmenlarning etarli emasligi
6. Turistlarni qabul qilishda faollik hozircha zaif bo`lib, bunga sabab jo`ylarda mahalliy aholining boshlang`ich mablag`lari yo`qligi, shuningdek, ularda turizm soxasida bilim va ko`nikmalarning etishmasligi.
7. Alohida qo`riqlanadigan hududlar hodimlari orasida turistlarni qabul qilish va ularga servis xizmati ko`rsatishda alohida malakali kadrlar etishmasligi, shuningdek, bu borada tashkiliy ishlar xam yaxshi yo`lga qo`yilmaganligi.
8. Mahalliy aholi va viloyatdagi alohida qo`riqlanadigan hududlar hamda turizmni rivojlantiruvchi organlar o`rtasida o`zaro aloqa va qo`llab quvvatlash mexanizmi shakllanmaganligi.

Shuningdek, O`zbekistonda sayyoohlarga ko`rsatilayotgan servis hizmaltlarning salbiy ko`rsatkichlari ekoturizmning rivojlanishiga ham ta'sit etmoqda.

## **2.BOB VILOYATDA EKOLOGIK VA REKREATAIYA TURIZMLARI RESURSLARI**

### **2.1 Viloyatda ekologik turizm resurslari va ularning tavsiflari**

Erkin bozor sharoitlari va talablariga o`tayotgan iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, xo`jaliklari tabiat boyliklaridan tejamli va samarali foydalanmasdan ustivor yutuqlarga erisha olmasliklari xalqaro iqtisodiyotdagi tajribalardan ma'lum bo`lmoqda. Ayniqsa, ekologik-rekreatsiya resurslaridan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarda tabiatni muhofazalovchi usullarda foydalanish tobora dolzarb muammolarga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham tabiat va uning resurslaridan turizmda foydalanishda ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-geografik omillarni o`rganish talab qilinadi.

Jizzax viloyatida ekologik va reaktsiya turizmlarini rivojlantirishda dastlab bu turizm turlarining resurslarini ro`yxatga olish va tavsiflarini yaratishda viloyatning tabiiy-geografik sharoitlariga to`xtalish zarur bo`ladi.

Jizzax viloyati 1973 yil 29 dekabr kunida tashkil qilingan, maydoni – 21,2 ming km<sup>2</sup>, aholisi – 1051,4 ming kishi (2006 y.). Viloyat O`zbekiston Respublikasining markaziy qismida joylashgan bo`lib iqtisodiy rivojlangan. Toshkent va Samarkand viloyatlari hududlari o`rab turadi(2.1.-rasm), bu sharoit viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Ayni vaqtda viloyatning janubiy-sharqda Tojikiston Respublikasi, shimolida Qozog`iston Respublikasi bilan qo`shtichiligi uning geosiyosiy mavqeini ham belgilaydi.

Viloyatning shimoliy, shimoliy-g`arbiy va qisman sharq tomoni tekisliklardan, shimol tomoni tekisliklari hududida Aydarko`l va Arnasoy ko`llari mavjud bo`lib, janubiy tog` va tog`oldi mintaqalaridan iborat. Viloyat respublikamizda etishtiriladigan paxtaning 4,8 % ini, donning 7,4, kartoshkaning 2,0 % ini etishtiradi.

Jizzax viloyatida 105,3 ming hektar erga paxta ekilib, undan 115,5 ming tonna paxta xosili olinadi. Shuningdek, poliz ekinlari 4,8 ming hektar maydonga

ekilib 47,3 ming tonna mahsulot olinadi. Shu bilan birga viloyatda yiliga 12,4 ming tonna kartoshka, 10,6 ming tonna meva va sabzavotlar etishtiriladi. Viloyat chorvachiligi go`sht, sut, qorako`l teri, pilla, parrandachilik va baliqchilikka ixtisoslashtirilgan.

Viloyat hududida respublikamizning alohida tabiiy geografik mintaqalariga xos bo`lgan barcha tabiiy ekologik mintaqalarning mavjudligi rang-barang tabiiy landshaft ko`rinishlarini hosil qilgan. Bu esa o`z navbatida ekologik rekreatsion resurslarning ko`pligini ta'minlagan.

Viloyatning betakror tabiatni Turkiston tog` tizmasi bag`rida va bu tog`lar tabiatni bilan bog`liq tabiiy rel'ef ko`rinishlari bilan bog`liq hisoblanadi. Turkiston tog` tizmasi O`zbekiston, Tojikiston va Qozog`iston respublikasi hududlarida joylashgan bo`lib g`arbdan sharqqa tomon 340 kilometr masofaga cho`zilgan. Viloyatdagi eng so`lim ekologik-rekreatsiya boyliklari ham ushbu tog` yon bag`irlarida tabiiy jihatdan shakllangan.

Turkiston tizma tog`larining viloyat hududlaridagi Qizil-mazorsoy, Ko`lsov, Supa, Chortanga, Sharilloq, Qashqasoy, O`rikli soylari bu tog`larning eng xilma-xil tabiiy archazor o`rmonlari bilan qoplangan. Shuning uchun ham bu archa o`rmonlari va uning noyob hayvon olamini muhofaza qilish uchun Markaziy Osiyoda va O`zbekistonda birinchi Zomin (ilgarigi nomi G`o`ralas) davlat tabiat ko`riqxonanining umumiyligi maydoni 26800 gettarni tashkil qiladi, shundan 22135 gettari archazor o`rmonlari bilan qoplangan.

Qo`riqxona tabiatning yanada e'tiborga olish muhofazani ko`chaytirish shu bilan birga aholining dam olish maskanlarini yaratish maqsadida 1976 yilda qo`riqxona chegaralarida hududlarining bir qismida Zomin milliy bog`i tashkil qilindi. Bu milliy bog` ma'muriy jihatdan Jizzax viloyatining Zomin tumani hududida Pomir-Oloy tog` tizmasiga kiruvchi Turkiston tog` tizmasining g`arbiy qismida, Molguzar tog`ining g`arbiy yon bag`rida joylashgan bo`lib, uning maydoni 24110 gettarni tashkil etadi.

Qo`riqxonada va Milliy tabiat bog`ida g`oyat noyob va xilma-xil hayvonot dunyosi yashaydi. Bu tabiatda qushlarning 134 ta turi, sut

emizuvchilarning 37 ta turi, sudralib yuruvchilarning 37 ta turi ro`yxatga olingan. Qo`riqxonadagi turkiston silovsini, oq tirnoqli ayiq, sibir echkisi O`zbekiston Respublikasining «Qizil kitob»iga kiritilgan.

Qo`riqxonaning so`lim ekologik go`shalari juda ko`p. Shulardan eng tomoshabop joylaridan biri – Qizil-eshaksoy maydonida joylashgan baland, katta sorinkilarni eslatuvchi, g`aroyib ko`rinishdagi qizilqoya toshlaridir. Ushbu toshlar qum va konglomeratlardan iborat bo`lib, u afsonaviy odam yoki shersimonkappaparga o`xshab ketadi. Mahalliy xalq bu ko`rinishni «Qirqqiz» deb ataydi(2.3-rasm) .

Singzor daryosining irmoqlaridan biri – Ko`ksoyning o`rta qismida ohaktoshlar orasidagi g`aroyib bir darani mahalliy aholi «Chortanga» deb ataydi. Bu darada suv hayqirib oqib, sayroqi qushlar kabi har xil ovozlar chiqaradi. Shuning uchun ham bu «Sayrovchi dara» nomini ham olgan. Bu dara ohaktosh yotqiziqlari orasidan 2 km masofaga cho`zilgan. Bunday tor va chuqur daralar, qashqasuv, g`o`ralashsoylarda ham mavjud.

G`o`ralashsoyning o`ng yon bag`idagi katta archali qismida ming yillar davomida nurash natijasida palaxsa toshlar turli shakllarga afsonaviy ajdarho, yo`lbars va boshqa ko`rinishlarga ega bo`lganligidan turislarni hayratga soladi. Ushbu tabiat yaratgan mo`jizalarni turistlar tomosha qilish bishlan birga shifobaxsh archazorlar havosidan bahramand bo`ladilar.

Viloyatning g`arbiy qismida, Nurota tog` tizmasining shimoliy qiyaliklarida 1975 yilda Nurota tog` o`rmon davlat qo`riqxonasi tashkil qilingan. qo`riqxonaning asosiy vazifalari noyob hayvon – yovvoyi qo`y – arxar va turli tur grek yong`og`zor o`rmonlarini saqlab qolish hisoblanadi (2.4-rasm).

Mujrumsoyda esa 1000 yoshli archa (biota) bor (2.5-rasm). Uxum, Sintobsoy, Ustun qishloqlarida ham Aleksandr makedonskiy nomi bilan bog`lanib qolgan joylar, 1000 yoshli daraxtlar davlat muhofazasi ro`yxatiga olingan. Qo`riqxonaning Osrafsoyida qadimgi qoyatoshlarga chizilgan qadimiy rasmlar saqlanib qolgan (2.6-rasm).

Viloyatning Baxmal tumanidagi archazorlar bilan qoplangan, Novqaota, Bog`imazor, Ayiqsoy, Boyqo`ng`irsoy, Jo`m-Jo`msoy, Tangatopdi daralari ham O`zbekistonning eng so`lim, betakror tabiatni landshaftlari ro`yxatda turadi.

Viloyatning shimoliy-g`arbiy va sharqiylar qismi tekisliklari, past tekistliklarida 600 ming maydonni egallagan Aydarko`l va 63300 hektarli Arnasoy ko`llari qishlovchi qushlarning makoni va o`ziga xos hayvonot olami hududlari hisoblanadi (2.7-rasm). Respublikamizdagi noyob suv hayvonlari qushlari va qishlovchi qushlarni muhofaza qilish uchun «Arnasoy» tabiat davlat zakaznigi tashkil qilingan. Turiston tizma tog`laridan boshlanadigan va viloyatdagi eng katta daryolar hisoblangan Zominsoy va Sangzor daryosi havzasida 50 dan ziyod shifobaxsh, shu bilan birga so`lim tabiatni bo`lgan bo`loqlar bor.

Viloyatning Baxmal, Gallaorol, Zomin, Forish tumanlarida tabiat yaratgan mo`jizaviy yodgorliklar mavjud (Qirqqiz, Malik ajdar, qo`ytosh, qoyatoshlardagi qadimgi rasmlar va boshqalar...). Jizzax shahri va Paxtakor, G`allaorol tumanlarida, qadimgi Buyuk Ipak yo`li karvon yo`llaridagi «Sardobalar» hozirgacha saqlanib qolgan. Bunday noyob tabiat va madaniy yodgorliklar, makonlar ichki va xalqaro turistlarda katta qiziqishlar hosil qiladi. Bu esa viloyatda ekologik-rekreatsiya turizmlarini rivojlantirishning katta imkoniyatlari borligini bildiradi.

Jizzax viloyati tabiatning qisqacha tavsifidan xulosa qilish mumkinki, viloyatning hududlari ekologik-rekreatsiya resursslariiga juda boy. Ammo ushbu resurslardan hozirda talab darajasida foydalanilmasdan qolmoqda. Viloyatda mavjud ekologik-rekreatsiya resursslardan foydalanish imkoniyatlarini o`rganish, bunday joylarda dam olish sharoitlarini yaratish, ekologik-rekreatsiya resursslardan foydalanishni targ`ib qilish, reklamalarini chiqarib ichki va xorijiy turistik oqimni kuchaytiradi.

Viloyatda ekologik-rekreatsiya resursslaring va iqlim xususiyatlarining ijobiliyi, tabiat ekskursiya resursslaring ko`pligi va xilma-xilligini respublikamizning viloyatlaridagi tabiat boyliklariga qiyoslaganimizda ham

Jizzax viloyati viloyatlari chida to`rtinchi o`rinni egallaydi. Rekreatsiyaning eng muhim faoliyati bo`lgan ijtimoiy-madaniy rekreatsiya ekskurtsiya resurslari bilan taqqoslaganimizda Jizzax viloyati ikkinchi o`rinni egallaydi (2.1-jadval).

Ushbu jadval ma'lumotlari bo`yicha viloyatning ihlim sharoitlari ijobiy, tabiatdagi manzarali xilma-xillik darajalari yuqori va o`rtacha, bilish salohiyati o`rtacha hisoblanadi. Shuningdek, ekskursiya resurslari va ekskursiya resurslarining tarkibiy ko`rsatkichlari bo`yicha ham viloyat boshqa viloyat ko`rsatkichlari bo`yicha oldingi o`rinlarni egallaydi.

Ushbu ma'lumotlar ham viloyatda ekologik turizmni ichki va xalqaro miqyoslarda ham jadal rivojlantirish imkoniyatlari borligini tasdiqlaydi. Shuning uchun ham viloyatdagi ekoturizm resurslaridan foydalanishda bu resurslarning guruhlarini, tavsiflarini yaratish talab qilinadi. Jizzax viloyatining ekologik turizm resurslarini tadqiq qilganimizda avvalo O`zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza hilish Davlat qo`mitasining «O`zbekistonning ekoturistik xaritasini e'tiborga olish lozim (2.8-rasm).

Ushbu xaritaga muvofiq mamlakatimiz hududlari 14 ta ekoturistik rayonni tabiiy iqlim sharoitlari, ekologik bioxilma-xilliklari o`ziga xos bo`lgan ekoturistik mintaqqa (zona) deb ham qabul qilish mumkin. Bu ekoturistik rayonlar quyidagilar: Ustyurt, Orol va Orolbo`yi, Amudaryo, Qizilqum, Nurota, Zarafshon, Aydarko`l, Sirdaryo, Chirchiq, Ohangaron, Turkiston, Qashqadaryo, Hisor, Surxondaryo ekoturistik rayonlar(2.1-jadval).

## **2.2. Viloyatdagi rekreatsiya resurslari va ularning tavsifi**

Jizzax viloyatida hozirga kelib 372 ta tarixiy, madaniy me'ros ob'ektlari ro`yxatga olingan, shulardan 42 tasi ziyoratgohlar, 267 ta arxiologik manzillar, 63 tasi monumental yodgorliklar hisoblanadi. Viloyatdagi 42 ta ziyoratgohlarning ro`yxati tuzilib kadarstrlangan, ta'riflari yozilgan.

Jizzax viloyati «Tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash va ulardan foydalanish Davlat inspeksiysi arxivi ma'lumotlari bo`yicha yana 11

ziyoratgohlarning ro`yxati» Jizzax viloyati Davlat kadastr ishlari qo`mitasiga ularni o`rganish, tavsifini yozish, hujjatlashtirish, davlat muhofazasiga o`tkazish va foydalanishga topshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqishga berilgan.

Viloyatdagi ziyoratgohar o`rganilib tadqiq qilingandan keyin bu ziyoratgohlarning hujjatlashtirib foydalanishga topshirilganlari soni 37 ta hisoblanadi. Ushbu ziyoratgohlarning geografiyasi viloyat bo`yicha quyidagicha joylashgan.

Gallaorol tumanida – 4 ta, Forish tumanida – 4 ta, Baxmal tumanida – 6 ta.

Yangiobod tumanida – 3 ta, Zomin tumanida 12 ta, Molguzar to?larida – 3 ta, Jizzax tumanida 2 ta, Jizzax shahrida – 3 ta .

Viloyatdagi rekreatsiya resurslarini o`rganish va tavsiflarini yozishni ziyoratgohlardan boshlaganimizning sabablari bor. Birinchidan, viloyatdagi ekoturizm resurslari bevosita rekreatsiya resurslari ham hisoblanadi. Ikkinchidan, rekreatsiyaning faoliyatlarini o`rgangarimizda uning faoliyatları juda turli-tuman bo`lib oldingi bo`limda keltiranimizdek, asosan 3 yo`nalishda amalga oshiriladi:

- 1 – tabiiy-biologik;
- 2 – ijtimoiy-madaniy;
- 3 – iqtisodiy.

Ushbu rekreatsion faoliyat yo`nalishlaridan ikkinchisiga e'tibor berganimizda bu yo`nalishning – rekreatsiyaning etakchi faoliyati deb baholanishini – ya'ni, insonning o`zini bilishida, uni o`rab turgan muhitni bilishida ma'naviy, ruhiy, madaniy dam olishga ehtiyoj, talab sezishni anglab olishimiz zarur.

Ruhiy, ma'naviy dam olishda esa ziyorat inson hayotida muhim o`rinni egallaydi. Bu haqda ishning birinchi bobida keltirildi. Rekreatsiyaning biologik resurslaridan tashqari ma'naviy-ruhiy dam olish rekreatsiyaning resurslari ham Jizzax viloyatida katta salohiyatlarga ega ekanligi kuzatuvlар natijasida ma'lum bo`ladi. Bu ziyoratgoh maskanlarning kadastr bahosini berishda ham

kishilarning hordiq, ziyorat, davolanish joylaridir deyilgan. Xalqimizning ziyoratni katta ma'naviy boylik deb bilishi nuqtai nazaridan ham turizmni ayniqsa ichki rekreatsiya turizmini rivojlantirishda ziyoratgohlari muhim ijtimoiy-madaniy rekreatsiya resurslari bo`lib xizmat qilishi mumkin.

Eng muhimi ziyoratgohlarning barchasida zilol bo`loqlar bu buloqlar atrofida so`lim tabiat go`shalari tashkil topgan. Quyida ushbu ziyoratgoh rekreatsiya resurslari haqida qisqacha ma'lumotlarni keltiramiz.

Viloyatning G`allaorol tumanidagi ziyorat-rekreatsion resurslarining tavsiflarini keltirganimizda viloyatda xal`aro turizmni rivojlantirishning katta imkoniyatlari borligi ma'lum bo`ladi. Chunki, 2.2-jadvalda ko`rsatilganidek, Muhammad (s.a.v) payg`ambarimizning amaki-tog`alari, ko`p yillar birga bo`lgan, islom olamida taniqli avliyo va sarkarda, saxoba Sa'd ibn Abu Vaqqosning hozirgi Avliyo qishlog`ida g`ayridinlar bilan jangda jimjilog`i qirqilib qon to`kiladi. Yaradorlik Sa'd ibn Abu Vaqqos (r.a.)ning sog`ligiga ko`p ta'sir etmaydi, keyinchalik Arabistonga qaytib ketib, uzoq umr ko`radilar(2.9-rasm).

## **2.2-jadval**

### **Viloyatning G`allaorol tumanidagi ijtimoiy-madaniy (ziyorat) rekreatsiya resurslarining tavsifi**

Nº	Nomi va joyi	Rekreatsiya faoliyati va viloyat rekreatsiya sharoitlari
1.	Sa'd ibn Abu Vaqqos (Avliyo qishlog`ida)	Ziyorat infratuzilmalari, dam olish va ovqatlanish infratuzilmalari, masjid, honagoh, buloq, hovuz, ko`kalamzorlashgan bog`, sayrgoh joylar, tog`ga chiqish so`qmoqlari, hududi – 2,5 ga
2.	Sayfin ota (Sayfin ota qishlog`ida)	So`lim daraxtzor, buloq, masjid, honaqoh, tarixiy qabrtoshlari, hududi – 8 ga.
3.	G`o`bdun ota (G`o`bdun	Tog` oralig`ida joylashgan so`lim maskan,

	qishlog`ida)	arxiologik maydonlar, ko`hna qabrtoshlar, quyuq daraxtzor, buloq, hududi – 3,83 ga.
4.	Savruk ota (Savruk qishlog`ida)	

Rivoyatlar bo`yicha qirqilgan jimjiloqni qabristonga ko`mishadi. Shundan keyin qon tukilgan joyda buloq hosil bo`lgan. Buloqning zilol suvlaridan hozirda atrofdagi 3 ta qishloq ichimlik suvi va dehqonchilikda foydalanadi. Shu o`rinda sahabalar haqida qisqacha to`xtalish zarurati bor.

Musulmon ummatining birinchi avlodi bo`lgan sahabalar, haqiqatda insoniyat tarixidagi o`xshashi yo`q ulug` zotlardir. Musulmonlarning bu avlodi Allah taoloning kalomida tilga olingan, Payg`ambarning hadislarida maqtalgan, musulmonlar jumhuri tomonidan madh etilgan saodatmand bir avloddir.

Sahobalar er yuzida iymonning barqaror bo`lishi, Allah taolaning tavhidi shirk va nufrdan ustun kelishi uchun mollariyu jonlarini fido hilgan, bu mahsad yo`lida duch kelgan barcha to`sislarni sobitqadam bilan engib utib misilsiz qahromonlik ko`rsatgan buyuk insonlardir.

«Sahoba» so`zi lug`atda – «do`stlik» va «yo`ldosh bo`lmoq» ma'nolarini anglatadi. Ali ibn Madiniyning (r.a.) ta'rifi bo`yicha – «Rasululloh (a.a.v) bilan suhbatlashgan yoki bir soat bo`lsa ham o`ngida u zotni ko`rgan kishi sahabadir». Imam al Buxoriy (r.a.) shunday ta'rif qilganlar: «Rasululloh (s.a.v.) bilan suhbatlashgan yoki u kishini ko`rgan har ibr musulmon u zotning sahabalaridandir».

Rasulullh (s.a.v.) vafotlaridan keyin sahabalar ham tug`ilib o`sgan, o`zlari sevgan vatanlarini tashlab alloh taolo roziligi hamda muqaddas islam dinini er yuziga tarqatish uchun turli yurtlarga tarqalib ketdilar.

Hijratning o`rtalaridan Mavorounnahr diyoriga Islom dini kirib kela boshladи. Birinchi kelgan fotihlar orasida ko`plab sahabalarni uchratish mumkin. Bunga Mavorounnaqrda bir qator shaharlarda ularning qabrlari borligi yorqin dalildir.

Rasullulloh (s.a.v)ning amakisi, ulug` zotni eng oxirgi yo`lga kuzatgan Husam ibn Abbos, Sa'd ibn Abu Vaqqos, Abdurahmon Abdolar shular jumlasidandir.

Hazrati Sa'd ibn Abu Vaqqos (r.a.) Abu Bakr Siddiq vositasida Islomga kirgan besh zotning uchinchisi, Makkalik musulmonlarning esa oltinchisi edi. Asharan mubashsharadan (ya'ni jannatga kirishi bashorat qilingan o'n sahobiylardan biri) Sa'd oltinsi otada Payg`ambarimizning sulolalari bog`lanadi. Sa'd ibn Abu Vaqqos banu Zuhraqavmidan bo`lib Muhammad Payg`ambarning tog`alaridir. Bu haqda Rasulloh (s.a.v.) – «Mana bu kishi mening tog`am! qani boshqalar ham o`zining shunaqa tog`asini ko`rsatsin-chi» degan.

Badr jangidagi payg`ambarimizning hayoti xavf ostida qolganda Sa'd qahramonlik ko`rsatgan (kamonda otish bo`yicha undan o`tadigan jangchi bo`limgan)ligi uchun Rasulloh (s.a.v) – «Ot Sa'd otgan, ota-onam senga fido bo`lsin» - degan. Islomshunoslarning tadqiqotlaricha Payg`ambarimiz (s.a.v) hech kimni bunday sharaflamagan.

Hozirda buloqni ham sa'd ibn Abu Vaqqos bulog`i deyishadi. Bu muqaddas buloq mana 1,5 ming yildan beri odamlarga hayot, qut-baraka berib kelmoqda. hatto eng kuchli qirg`oqchilik yillari ham uning suvi kamaymagan. Xalqaro islom olamida bu holatning reklama qilinishi ham turistik oqimni kuchaytiradi.

Jadvaldagи boshqa ziyorat-rekreatsiya maskanlaridan ichki rekreatsiya turizmini rivojlantirishning istiqbolli yo`nalishlari, imkoniyatlari bor.

Mamlakatimiz aholisi qadimdan muqaddas ziyoratgohlarni asrab-avaylab kelgan, ziyorat natijasida ruhiy poklanish, xotirjamlik hissiyotlarini, tuyf`ularini olgan. Viloyatning Forish tumanidagi ziyorat- rekreatsiya joylari haqida quyidagi ma'lumotlarni keltiramiz (2.3-jadval).

## 2. 3-jadval

### **Viloyatning Forish tumanidagi ijtimoiy-madaniy (ziyorat) rekreatsiya resurslarining tavsifi**

Nº	Nomi va joyi	Rekreatsiya faoliyati va viloyat rekreatsiya sharoitlari
----	--------------	--

1.	Jondahar ota (Garasha qishlog`ida)	Buloqning suvi shifobaxsh xususiyatlarga ega, sariq kasalligiga, teridagi har xil dog`larni ketkazuvchi, qutirgan it qopganlar buloq suvida cho`miladilar, har xil oshqozon-ichak kasalliklarida ham bu chashmaning suvini ichish koni foyda. Masjid, Xonahoq qurilgan, obod, ko`kalamzor joy, hududi – 2 ga.
2.	Xo`ja bog`bon ota (Qoratog`qishlog`idan tog`tomonda)	Antiqa – yozda ham, qishda ham suvi issiq holda bo`ladi, ko`kalamzor va obod joy, 1000 yoshli tut daraxti, 200 yoshdagi masjid binosi bor, tog` tomon yo`laklar, zinalar hovuzlar qurilgan. Bog`dorchilik va dehqonchilikni karomat qilgan avliyo, tarixiy shaxs, bog`bonlar, dehqonlarning piri. Ushbu ziyyaratgoh ikki joydan iborat: birinchisi Muhammad Sharif Mavloniy (Mavlono Grekushoh) nomi bilan atalsa, ikkinchi ziyyaratgoh – Jondaharota nomi bilan bog`liq»
3.	Narvon ota (Narvon qishlog`ida)	Go`zal adir, tog` tabiat, ko`plab buloqlar, ularning qo`shilishidan hosil bo`lgan jilg`alar, quyuq daraxtalar, tarixiy qabrtoshlar
4.	Xonbandi (Forish tuman imarkazidan past tog` tarafda, shaharchasida)	Toniqli olim Eduard Rivaladze – tadqiqotlari bo`yicha – mazkur to`g`on xalqlari Bunyod etgan sug`orish inshoatlarining eng qadimgisi – X asr. Chingizzon bosg`iniga qadar 200 yil ishlab turgan. Tabiat va qurilishi betakrorligidan hozirgacha

		kishilarni maftun etmoqda. Xaqraro turizmda foydalanish imkoniyatlari katta, hududi – 8,0 ga.
--	--	---

Forish tumanidagi ziyyarat-rekreatsiya maskanlarining tavsiflarini keltirganimizda ham viloyatda turmushni rivojlantirishda tarixiy shaxslar bilan bog`liq ma'ulmotlarni qisqacha keltirish o`rinli bo`ladi.

Jadvalda qayd qilinganidek, bu joyda ikkita muqaddas hisoblanuvchi makon bor. Bu makonlarning birinchisi xalqimizning tarixi bilan bog`liq voqealar bilan bog`liq. Ikkinchisi – Jondahor ota rivoyatlari bilan qo`shilib ketadi. «Jondahor ota – jonga rohat beruvchi, jonga darmon beruvchi» ma'nosida mahalliy xalq hurmat-e'tiqodidan hozirgacha tushmagan. Lekin bu ziyyaratgoh ulug` inson Ulug`bek Mirzo nomi bilan bog`liq. Bundan xulosa qilish mumkinki, ushbu tumandagi tumandagi ziyyarat-rekreatsiya resurslaridan ham xalqaro turizmdan foydalanish imkoniyatlari bor.

Jizzax viloyatidagi ijtimoiy-madaniy rekreatsiya resurslarining navbatdagi Baxmal tumanidagi zahiralari hisoblanadi (2.4-jadval).

### 3.4-jadval

#### **Viloyatning Baxmal tumanidagi ijtimoiy-madaniy (ziyyarat) rekreatsiya resurslarining tavsifi**

Nº	Nomi va joyi	Rekreatsiya faoliyati va viloyat rekreatsiya sharoitlari
1.	O`sma ota (Baxmal tumani markazida)	Tuman markazidagi so`lim go`sha, honahoq, xalqimizning tarixi bilan bog`liq tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar hayoti. Eng muhimmi, xalqimiz ushbu ziyyaratgohlarga bolalarining ilmi-ma'rifatli bo`lishi uchun niyat so`rab ziyyaratni amalga oshiradilar.

2.	Navqa ota (Navqa qishlog`ida)	Muqaddas bulog`, tog` bag`ridagi juda so`lim joy, buloq suvlari to`yimliligi bilan mashhur, masjid, qisman xizmatlar infratuzilmasi tashkil qilingan. Navqa ota nomi to`liq o`rganilmagan. qabr-honahoq ham o`rganilmagan. Qadimiy qabrtoshlar mavjud. Masjid hurilgan, hududi – 2.25 ga.
3.	Bog`i Mozor (Mug`ol qishlog`idan tog` tarafda)	Sohibqiron Amir Temur hayoti bilan bog`liq ko`p rivoyatlar bor. Mir Said Barakaning inisi bilan bog`liq rivoyatlar tarixdan ma'lum. Juda so`lim joy, Sangzor daryosining boshlanish qismi, archazor o`rmonlari, tarixiy sirlar makoni, chigal, ochilmiagan xabarlar, masjid, xonahoq, hududi – 2,0 ga.

Baxmal tumanining ekologik-rekreatsion va ijtimoiy-madaniy (ziyorat) rekreatsion resurslari respublikamizda betakrorligi bilan ajralib turadi. Ziyorat-rekreatsiya resurslari makonlari xalqimizning tarixi, ayniqsa sohibqiron Amir Temur, uning piri Mirsaid Barakaning ukasi, Temir lashkarboshilaridan biri bo`lgan Sayyid Mir Xalililloh hayoti bilan bog`liq, XIV asrning oxiri XV asrning birinchi yarmida yashapb o`tgan fiqqshunos olim imom Usmoni turkistoniy (avliyo darajasiga ko`tarilgan) hayoti bilan bog`liq ko`plab ma'lumotlarni ham beradi.

Bu rekreatsiya makonlariga yil davomida, ayniqsa bahor, yoz va kuz oylarida katta turistik oqimni tashkil qilish imkoniyatlari bor.

Viloyatning Yangiobod tumanidagi ziyorat rekreatsiya makonlari haqidagi tavsiflarni keltirganimizda bu viloyatning tabiatida uzoq o`tmish tarix davomida so`lim tabiiy go`shalar, shifobaxsh buloqlar, ko`kalamzor manzillar ko`p bo`lganligiga amin bo`lamiz (2.5-jadval).

## 2. 5-jadval

### **Viloyatning Yangiobod tumanidagi ijtimoiy-madaniy (ziyorat) rekreatsiya resurslarining tavsifi**

Nº	Nomi va joyi	Rekreatsiya faoliyati va viloyat rekreatsiya sharoitlari
1.	Xo`ja Mushkent ota (Xo`ja Mushkent qishlog`ida)	Juda ko`p buloqlar bor. Har bir buloq – Niyat-buloq, Murodbuloq, Isitmabuloq, qo`tirbuloq nomlari bilan niyat ila ziyorat amalga oshiriladi, buloqlarning suvidan ichiladi. Bu ziyoratgohda xazrati Alining tarafdarlaridan eng mashgur lashkarboshisi Xo`jai ibn Isoq (Abu Muslim)ning qabri bor. Farzandining botir, sog`lom bo`lishini yoki farzand so`rab ziyorat qilinadi, palvonlar (uloq-ko`pkari), sportchilar ham ziyorat qilishadi, hududi – 14 ga
2.	Cho`qmozor ota (Qo`sinqand qishlo`ida)	«Juzning bir juzi» deyilib asosan yuz qabila urug`lari vakillari, ya'ni shu urug` vakillari ziyorat qiladi, Juzlarning himoyachisi hisoblanadi. 600-700 yoshli tut daraxtlari, qadimiy qabristonlar, arxiologik joylar, hududi – 3 ga.
3.	Changovul bobo (Changovul qishlog`ida)	So`lim joy, Xoja Yusuf Hamadoniy kelgan, Amir Temurning «Changovul» qo`shinlari turgan degan rivoyatlar bor. Karvon yo`li o`tgan, afg`on-Changi bulbulning so`nggi manzili bo`lgan degan manba ham bor, qadimiy qabriston, honahoq bor, hududi – 6,0 ga

Ikkinchidan, qadimdagি Buyuk Ipak yo`lining viloyat hududlaridan o`tshi, bu karvon yo`lidagi madaniy markazlarda, shaharlarda va katta aholi to`plangan joylarda, asosan tog`lik so`lim joylarda ko`plab tarixiy shaxslarning, eng e'zozlangan shaxs va avliyolarning muqim yashab qolganligi va so`ngida ular bilan bog`liq muqaddas joylar, qabrlari ziyorat dam olish, insonlarni ruhiy poklanish, xotirjamlikka chorlash manzillari bo`lib qolganligiga yana bir e'tibor berishimiz kerak.

Ushbu ziyorat-rekreatsiya manzillarida turizmning ko`p mablag`lari talab qilmaydigan infratuzilmalarini (dam olish joylari, ovqatlanish sharoitlari, sayr-tomosha so`qmoqlari va boshq.) yaratish birinchi navbatdagi vazifadir.

Viloyatning Zomin tumanidagi ziyorat rekreatsion resurslar manzillari ham xalqimizning tarixiy, qadim ma'naviy qadriyatlarini, ulug ulomalari, aziz avliyolari va ularning abadiy qo`nim topgan muqaddas qadamjolarini hozirgacha asrab-avaylab kelayotganligining isbotidir. Bu joylarning ko`pi o`tmishda nom qoldirgan amirlar, xonlar, islam olamidagi mashhur avliyolar, islam ta'limotini yaratgan olimu-fuzalolarning nomlari bilan bog`liq (2. 6-jadval).

## .2. 6-jadval

### **Viloyatning Zomin tumanidagi ijtimoiy-madaniy (ziyorat) rekreatsiya resurslarining tavsifi**

Nº	Nomi va joyi	Rekreatsiya faoliyati va viloyat rekreatsiya sharoitlari
1.	Ko`k to`nli ota (Zomin shahridan tog` tomonga 5 km masofada)	Honahoq, to`xtash joyi, oshxona tarmog`i bor. Yodgorlik ta'mirlangan. Dehqonchilikda karomatlar ko`rsatgan, “Mehnat qilsang hamma erda hosil bo`ladi” - shiorini tarqatgan avliyo, dehqonlar ko`proq ziyorat qilishadi
2.	Xo`jai Sarob ota (Pishag`ar qishlog`ida)	Bog`dorchilik va uzomchilik bo`yicha mashhur bog`bon, avliyo bo`lgan.

		Naqshbandiya tariqatida nom chiqargan tarixiy inson. Mahalliy aholini ilm-ma'rifatga o'rgatgan, buloq suvi shifobaxsh. Xo`jai Sarob – tarixiy shaxs – Mavlono Mu?ammad Peshog`oriy
3.	Xo`ja Shohimardon Sherdor (Turkman qishlog`ida)	Ulug` eshon sifatida ziyoratgoh. Rivoyatlar bo`yicha bu eshonlar avlodi Hazrati Aliga borib taqaladi. So`lim buloq atrofidagi ko`kalamzor bog`, hududi – 2,3 ga.
4.	Parpi ota (Yalpoqbosh qishlog`ida)	Morguzar tog`lari orasida, rivoyatlar bo`yicha sufiylik tariqatining asoschilaridan biri, eng ulug`i Abduhamid G`azzoliy qadami bor degan rivoyat. Aslida aholi sirli teshiktoshga sig`inadi, asosiy hollarda farzand so`raladi.
5.	Sayyid Burxoniddin qilich (Beshkubi qishlog`ida)	«Qilich Burxoniddin» nomi bilan mashhur Farg`ona hukumdonining ixtiyoriy taxtdan voz kechishi va uning qabri Buyuk Ipak yo`li manzilgohlarida ekanligi haqidagi ma'lumotlar bor. Ikkita qabr bor. Ikkalasi ham «Qilich Burxoniddin» va Sayyid Burxoniddin deb ataladi, hududi – 2,4 ga
6.	Xoja Qahor Vali (Zomin shahrida)	Masjid, xonahoq va tosh yodgorliklar, masjid XV asrda qurilgan, hozir qayta tiklangan, 2000 yoshli tut daraxti bor, so`lim joy, Zahiriddin Bobur, Abduraxmon Jomiy qadami tekkan degan manbalar bor, hududi – 1,0 ga.
7.	Archamozor ota (Ettikechuv Qishlog`ida)	Mulla Nazar Vali qo`yilgan qabr, 1000 yoshdagi qabriston, archazor, shifobaxsh

		buloqlarga yil davomida ziyoratchilar kelishadi
8	Qobilmozor (Qo'shintepa qishlog`ida)	Amir Temur Qozog`on va boshqa amir, xonlar qo'shini to`xtab dam olganligi haqida ma'lumotlar bor. Qo'shintepa haqida Parijda maqola chiqqan. Aytishlaricha rahbarlar, boshliqlar ko`proq ziyoratga kelishadi, betakror, so`lim joy
9.	Qum ota (Laylak uya qishlog`ida)	Mavlono Lutfulloq qabri joylashgan muqaddas ziyoratgoh, qumloq bor, bu erda bel og`rig`i, bosh og`rig`i, tana-vujud og`rig`i, bod, oyoq og`rig`iga chalinganlar ko`proq kelishadi, shifobaxsh buloqlar bor, hududi – 3,2 ga.

Bu ijtimoiy-madaniy rekreatsiya joylarida turistik ekskursiya infratuzilmalarini yaratish, rekreatsiya-ekskursiya transport xizmatlarini, dam olish, ovqatlantirish sharoitlarini yaratish mahalliy aholining ish bilan bandligini ta'minlaydi.

Ayniqsa, qayd qilingan ko`plab rekreatsiya manzilgohlarida shifobaxsh suvlar, qum va balchiqlarni tibbiy jihatdan o`rganish, tarixiy qabristonlardagi yozuvlarni, tarixiy shaxslar bilan bog`liq manbalarni mamlakatimiz, xalqaro miqyosda reklama qilish ham tadqiqotchilar, tarixchilar, islom dini mutaxassislarini, da'vo-shifo izlab yuruvchilarning oqimini kuchaytiradi.

Viloyatning Morguzar tog`lardiagi daralarda, soylarda ham hali ro`yxatga olinmagan, tavsiflari yozilmagan lekin aholi qadimdan e'zozlab kelgan, ziyorat qilgan va rekreatsiya-dam olish maskanlari deb bilgan ko`plab, betakror tabiat go`sasi bo`lgan joylar juda ko`p (2.7-jadval).

Ma'lumki, payg`ambarimiz avlodlari, sayydlar, eshonlar, avliyolar birinchidan bokira tabiat bag`ridagi so`lim joylarda, buloqlar atrofida to`xtalganlar. Ko`p

hollarda ular bunday joylarni abadiy makon qilib qolib ketganlar. Yashagan joylarda albatta musaffo bog`lar yaratilgan

## 2.7-jadval

### **Morguzar tog`i daralaridagi ijtimoiy-madaniy (ziyorat) rekreatsiya resurslarining tavsifi**

Nº	Nomi va joyi	Rekreatsiya faoliyati va viloyat rekreatsiya sharoitlari
1.	«Parpi oyim» ziyoratgohi (Uvolsoy darasida, Uvol qishlog`ida)	Morguzar tog`ining eng so`lim tabiatli Qishlog`i. Daraning «Toyg`anchiq» degan joyida ikki yarim qulochuzunlikda toshga o`yib yozilgan yozuvlar bor. Bu yozuvlar hali o`qilmagan, Tuyruktosh sirliligicha qolmoqda, g`orlar ham o`rganilmagan. Bu erdagi Parpioyim ziyoratgohiga befarzandlar va farzand so`raguvchilar ko`p kelishadi. Buj oy Vofiz Tanish Mir Muhammad Buxoriyning «Abdullonoma» asarida ham qayd qilingan, hududi – 10,0 ga.
2.	Qoplon ota (Beshbuloq Qishlog`ida)	Qoplontog` bag`ridagi Beshbuloq qishlog`i yashil tabiat bag`ridagi bokira joy. Bu erdagi g`abrga rivoyatlar bo`yicha hazrati Alining lashkarida soplon otuvchi Ahmad ibn Sayf Burxoniddin dafn qilingan. Shifobaxsh buloq yonida 1000 yoshli tut, tol daraxtlari bor. Tog` quyida ko`rkam xonahoq va boshqa imoratlar qo`rilib obod qilingan, hududi – 2,3 ga.
3.	Peshog`or g`ori (Morguzarning shimoliy	Zilol tog` suvli buloq oqib chiqadi, ko`kalamzor obod joy. Jilg`alardagi suv shu

	yon bag`rida)	g`orga kelib to`planadi va oqib chiqadi. Tog` ekskursiya sayohati uchun juda ko`p tabiiy ob'ektlar bor.
4.	Beshbuloq ota (Pishag`or qishlog`i ustida) Xo`jai Serob Ota	Mahalliy aholining axborot berishicha hududdan chiqayotgan 49 ta buloqning suvi shifobaxshlik xususiyatlariga ega. Respublikamizning viloyatlaridan odamlar kelib suvlaridan olib ketishadi, buloqlar yonida dam olishadi.

Jizzax viloyatidagi ijtimoiy-madaniy (ziyorat-ruhiy poklanish) resurslarini o`rganib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, xalqimiz bunday aziz avliyolar, tariximizda yaxshilik, ezgulik, ma'rifat ishlarini qoldirgan mo`tabar insonlarning poyi hoklarini asrab-avaylab kelmo`da. Ushbu joylarda ham ziyorat amallarini bajarmoqdalar, hm dam olishmoqdalar.

Ushbu so`lim rekreatsiya makonlarida viloyatda aholining ommaviy dam olishi, ruhy va jismoniy tiklanishi uchun birinchi navbatda uncha katta mablag`lar talab qilmaydigan turizm infratuzilmalarini, transport kommunikatsiya xizmatlarini tashkil qilishni talab qilmoqda.

### **Jizzax viloyatidagi tibbiy-biologik rekreatsiya resurslari**

Viloyatda tabiiy iqlim sharoitlari, resurslar salohiyati juda katta va bu resurslarda dam olish, davolanish markazlari tashkil qilish ko`paytirishning o`ta dolzarbliji ishning oldingi bo`limlarida aytib o`tildi.

Hozirga kelib viloyatda kurort, sanatoriya va pansionatlarning soni 5 ta (2.8-jadval). bo`lib, umumiy qabul qilish kuchi 710 o`rindan iborat. Bu sanatoriya va pansionatlar kasallikkarga ixtisoslashtirilgan davlat markazlari hisoblanadi. Bu viloyatda tibbiy-biologik rekreatsiya resurslaridan foydalanishda rivojlantirishda juda katta imkoniyatlar hisoblanadi.

Lekin hozirda bunday imkoniyatlardan to`lig`icha foydalanmasdan kelinmoqda. Yuqoridagi jadval ma'lumotlari bo`yicha davolanganlar soni o`sishi

hali juda past – 2010 yilda – 5,67 %; 2011 yilda – 22,31 % (9899:11458 kishi).

Agar bu miqdorni sanatoriya va pansionatlardagi o`rinlarga bo`lib chiqsak viloyatdagi jami pansion va sanatoriyalardagi o`rinlarda bir o`rinda bir yilda – 2009 yilda – 13 kishi, 2010 yilda – 14 kishi, 2011 yilda – 16 kishi dam olgan, davolangan. Viloyatda 2009-2011 yillarda davolangan, dam olganlarning kunlarini hisoblaganimizda viloyat bo`yicha 2009 yilda – 1 o`rin – 170 kun, 2011 yilda – 155 kun, 2012 yilda – 125 kun bo`sh turgan. Viloyatdagi sanatoriya va pansionatlardagi bo`sh o`rinlarni to`ldirishda ham tibbiy-biologik rekreatsiya resurslaridan foydalanish imkoniyatlari juda katta.

## **2. 8-жадвал**

### **Jizzax viloyatidagi mavjud tibbiy-biologik rekreatsiya resurslari (sanatoriya va pansionatlar)**

№	OKPO	SOATO	Kurort, sanatoriya va pansionatl ar nomi	Manzil i	Quvv ati (o`rin lar soni)	Sog`lomlashtirliganla r soni		
						2010	2011	2012
1	02002351	1708209565	Silga qarshi kurash dispanseri	G`allao rol tumani Abduk arim qishlog `i	50	250	233	256
2	04835440	1708218817	«Zomin sanatoriya si» ( 2.10- rasm)	Zomi tumani	400	4280	4212	5036
3.	18871327	1708212559	Qariyalar pansionati	Jizzax tumani Oxunb oboev KFY	50	1214	1384	1421
4.	19561942	1708209559	«Marjon suvi» sanatoriya	G`allao rol tumani	130	2943	3229	3345

			si	Lalmik or sh.				
5.	18871631	1708223501	«Gagarin-mineral suvlari» MCHJ	Mirzach ho`l t.	80	681	841	1373
					710	9368	9899	11458
					o`sish, %	100	105,67	122,31
	Bir yilda bir o`rinda davolanganlarning o`rtacha soni, kishi					13,20	13,95	16,14

### **2.3. Ekologik va rekreatsiya turizmlari marshrutlarida turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlash chora tadbirlari**

Turizmdagi boshqa turistik marshrutlarga taqqoslaganda ekoturizm marshrutlarida turistlarning hayotiga xavf soluvchi manbalar anchagina. Chunki ekoturizm marshrutlari tabiatimizdagi barcha ekologik iqlim mintaqalarini o`z ichiga oladi. Bu ekologik iqlim mintqalarining barchasida tabiatdagi zaharli hashoratlar, sudralib yuruvchilar yashashadi.

Ekoturizm marshrutlarida turistlarning hayotiga xavf soluvchi vaziyatlar va manbalarni quyidagi tartibda guruhlash mumkin:

Zaharli sudralib yuruvchilar (ilonlar) va hashoratlar (qoraqurt, pashshalar) chaqishi xavfi.

Iqlimning ta'siri xavfi (issiq urishi, tog`larda qon bosimi oshishi, o`simliklarning allergiya chaqirishi, shamollash).

Ichki kasalliklarning kelib chiqishi xavfi (meva sabzovatlardan, mahalliy suvlardan, mahalliy – milliy ovqatlardan).

Transport vositalarining cho`lda va to?liklarda, notekis yo`llarda yurishdan kelib chiqadigan xavf.

Ekoturizm marshrutlarida tabiatdagi zaharli ilonlar, hashoratlar haqida marshrutning «axborotlanganlik» tamoyili bo`yicha zaharlanish haqida marshrut ma'lumotlarida ogohlantirish xabarları yozilishi, zaharli ilonlar, chayon va qora-

qurtlarning qaerlarda ko`proq uchrashi yoki bo`lishi albatda yozilishi shart bo`ladi.

Mahalliy iqlim sharoitlari, manbalari asosida turistlarda ichki kasalliklar kelib chiqishini oldini olish uchun mahalliy suvdan foydalanmaslik, mahalliy aholi ovqatlarini bilan holda ovqatlanish, mevalarning xususiyatlari haqida og`zaki ogohlantirishlar, axborotlar, suhbatlar o`tkazish albatda kutilmagan xavfning oldini oladi.

Ekoturizm marshrutlarida turistlarning hayotida xavf paydo bo`lganda quyidagi xavf oldi va so`nggi tadbirlar marshrut hujjatlarida aks ettirilishi albatda zarur:

1. Ekoturizm marshrutlarida ilonlar, chayon qoraqurtdan zaharlanishiga qarshi va boshqa ichki kasalliklarning oldini oluvchi dorilar, zardoblar vositalari bo`lgan «ekoturizm aptechkasi - dorixonacha» si bo`lishi.
2. Turistlarning ekoturizm resurslari makonlarida yakka holda yurmasligi.
3. Zaharlangan holatda birinchi tibbiy yordam ko`rsatadigan tibbiyot mutaxassisining marshrut davomida turistlar bilan birga bo`lishi.
4. Ekoturizm marshrutlari o`tadigan joylardagi yaqin kasalxonalar, vrachlik – feldsherlik makonlarining adreslari, telefonlari marshrut hujjatlarida bo`lishi, doimiy mobil aloqalarining ishlab turishini ta'minlash.
5. Transport vositalarining texnik sozligini doimo nazorata olish va marshrutga chiqish oldidan yo`llarning holatini kuzatib chiqish.

Qayd qilingan tadbirlar ekoturizm marshrutlariga chiqishdan oldin qanchalik mukammal o`tkazilsa marshrutning – turning xavf-xatarsiz, kutilmagan noxush janjallarsiz muvaffaqyatli o`tkazilishni ta'minlaydi. Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiquvchilar va marshrutlarni o`tkazuvchilar marshrutlarda turistlar va xizmat qiluvchilar hayotiga xavf soluvchi manbalarni oldin bashoratlab bu xavfni o`z vaqtida bartaraf qilish ishlariga o`ta ma'sul va javobgardirlar.

**Tadqiqot ishining ikkinchi bobি** Jizzax viloyatida ekologiya turizm resurslari va ularni tavsifi etishga bag`ishlangan bo`lib viloyatda ekologik turizm hamda rekreatsiya rersuslari haqida to`la ma'lumot berishga harakat qilingan. Shuning bilan birga viloyatga tashrif buyurayotgan ekoturistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari ishlab chiqishning zarurligi yoritib bрtilgan. O'zbrkistonagi zaharli hauvin va hashoratlar haqida ma'lumotlar, ularning rasmlari keltirilgan.

Jizzax viloyatida tashkil etilgan alohida qo`riqlanadigan hududlar, Zomin davlat qo`riqxonasi, Zomin Milliy bog`I va Nurota davlar qo`riqxonasu iqlimi, yabiati, osimlik va hayvonot dunyosi haqidagi ma'lumotlar berilgan bo`lib, Oq turnoqli ayiq, burgut, tasqara, qora laylar kabi noyob turlarning yashayotganligi qayd rtilgan.

Ekoturistik maskanlardagi ekoturistik inshootlar, ularning tavsifi va rasmlari berilgan. Jumladan Zomin davlat qo`riqxonasidagi archazorli tabiiy landshaftlar, "Qirqqiz" tabiiy yidgorliggi, qiziqarli qoyatoshlarhlar, Nurota tog`laridagi "Xonbandi" yodgorligi va 1000 yullik biota o'simligi haqida ma'lumotlar bor. Paxtakor, G`allaorol tumanlarida, qadimgi Buyuk Ipak yo`li karvon yo`llaridagi «Sardobalar» nung turistik salohiyati ko`rsatib o`tilgan.

Viloyatda ekologik-rekreatsiya resurslarining va iqlim xususiyatlarining ijobiliyi, tabiat ekskursiya resurslarining ko`pligi va xilma-xilligini respublikamizning viloyatlaridagi tabiat boyliklariga qiyoslaganimizda ham Respublika viloyatlari chida to`rtinchchi o`rinni egallaydi. Rekreatsiyaning eng muhim faoliyati bo`lgan ijtimoiy-madaniy rekreatsiya ekskurtsiya resurslari bilan taqqoslaganimizda Jizzax viloyati ikkinchi o`rinni egallaydi .

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki Jizzax viloyatida katta ahamiyatga ega arxeologik yodgorliklar bo`lmasada katta va turistik imkoniyatlarga ega tabiiy resurslar, ekoturistik inshiitlar nihiyatda ko`p bolib bu viloyatda ekoturizmning rivojlanisiga asos bol`ldi.

### **3 BOB VILOYATDA EKOLOGIK VA REKREATSIYA RESURSLARINI RAYONLASHTIRISH VA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANISH**

#### **3.1 Ekologik va rekreatsiya resurslarini rayonlashtirish**

Ushbu ekoturistik resurslardan alohida-alohida ham foydalanish mumkin. hozircha respublikamiz turizmida turistik resurslardan qyd qilingan individual yo`nalishda foydalanilmoqda. Masalan, tarixiy yoki ziyorat turizmi resurslari kabi. Xalqaro yoki ichki turizmi rivojlangan davlatlarda esa turistik resurslardan majmuali usullardan foydalanish juda rivojlangan.

Bu holatning asosiy sababi O`zbekistonda hali majmuali turni, majmuali turmahsulotlarni ishlab chiqaruvchi malakali turoperatorlarning juda kamligi hisoblanadi. Ikkinchidan, turoperatorlarimiz respublikamizning tabiiy geografiyasini yaxshi bilishmaydi. Uchinchidan, viloyatlardagi turistik resurslarning rayonlashtirilmaganligidir. Shu sababli turoperatorlar turistik resurslarning umumiy ro`yxati bilangina ishlashadi, yoki viloyatlarda fa?at ancha ommaviylashgan turistik ob'ektlargagina turmahsulot, turistik marshrutlar ishlab chiqishmoqda.

Ichki turizmda ham, ayniqsa xalqaro turizmda bunday ya'nini har bir turistik ob'ektdan individual usulda foydalanish davridan o`tdik. Bu davning turistik mahsuloti eskirdi. hozir xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yangi va faqat yangi turistik mahsulotlar ishlab chiqishimiz talab qilinmoqda.

Turistik resurslardan majmuali foydalanishning mazmuni shundaki, tajribali turoperator bir turistik ob'ektni ko`rishga kelgan turist yoki turistlarni qo`shni turistik ob'ekt yoki turistik hududga qiziqtirishning uddasidan chiqishi lozim. Evropa, Amerika va Xitoy davlatlaridagi turoperatorlar shu usulda ishlashadi. Shuning uchun ham biz viloyatdagи ekoturistik-rekreatsion resurslardan turizmda foydalanshi uchun bu resurslarni viloyat bo`yicha rayonlashtirish bugungi turizm rivojining dolzarb talablaridan deb hisoblaymiz.

Turistik rayonlashtirishda ko`plab-tadqiqotchilar hududlarning turizmga yaroqliligi, turistik resurslarning jozibadorligini asos qilib turizm tizimini hududiy va mintaqaviy loyihalashtirishni taklif qilishgan. Turistik hududiy birliklarda rayonlashtirliganda tahlil ob'ekti qilib (asos qilib) geografik joylashishni, tabiiy sharoitini, biologik resurslarini, etnik, madaniy va tarixiy va tarixiy madaniy resurslarini (arxitektura obidalari, o`ziga xos an'anaviy madaniyati, muzeylari, madaniy markazlari), turizm industriyasining madaniy-texnik resurslarini, hududning ijtimoiy-iqtisodiy va zamonaviy ekologik holatiga bahoni, ekologik ijtimoiy-iqtisodiy bashoratlarni asos qilib oladi.

Biz ham Jizzax viloyatidagi ekologik-rekreatsion resurslardan ekoturizm-rekreatsiyani rivojlantirish uchun rayonlashtirish tadqiqotlarimizda yuqorida mualliflar taklif qilgan ijtimoiy-iqtisodiy va zamonaviy ekologik holatga baho mezonlaridan foydalandik. Ekoturistik rayonlarni namlashda ushbu rayondagi asosiy boyliklarni bildirib turishi asos qilib olindi. Ekoturistik rayon tarkibiga kiruvchi ekoturistik hududlarning biri birini ekoturistik resurslar bilan to`ldirib berish yoki keskin boshqacha ekoturistik jozibador bo`lishiga e'tibor berildi. Yana bir muhimi ekoturistik rayon ichidagi ekoturistik hududlar bir-biriga chegaradoshligi, bir ekoturistik hududdan ikkinchi bir ekoturistik hududga o`tishi mumkinligi ham hisobga olindi.

Shuning uchun ham, bizning xulosalarimiz bo`yicha bir ekoturistik rayon ichidagi ekoturistik hududlardan majmuali foydalanish imkoniyatlari yuqori darajada bo`ladi (masalan, o`rmonlardan suv havzalariga, ulardan ijtimoiy-madaniy resurslarga va boshq).

Viloyatda ekologik va rekreatsiya turizmini rivojlantirish uchun va ekologik-rekreatsiya resurslarini quyidagicha rayonlashtirish tavsiya qilinadi (3.1-rasm):

*I. Turkiston tog` tizmalaridagi archazor o`rmonlari va biologik resurslari ekoturistik rayoni:*

- 1.1. Zomin davlat milliy bog`i.
- 1.2. Zomin davlat tabiat qo`riqxonasi.
- 1.3. Zomin tog`lari archazor o`rmonlari tabiatini landshaftlari.

1.4. Zominsuv daryosi havzasi.

*II. Molguzar tog` tizmalaridagi archazor o`rmonlari bilan bog`liq tabiat landshaftlari ekoturistik rayoni:*

- 2.1. Baxmal tog`lari archazor o`rmonlari tabiat landshaftlari;
- 2.2. Sangzor daryosi havzasi;
- 2.3. Oyqor tog`li archazor o`rmonlari tabiat bioxilma-xilligi landshaftlari;

*III. Jizzax suv ombori havzasi ekoturistik rayoni:*

- 3.1. Jizzax shahridagi ekologik, ijtimoiy-madaniy resurslari.
- 3.2. Jizzax shahri atrofidagi agroturizm va madaniy landshaftlar.

*IV. Mirzacho`l tekisliklari va shimoldagi qumli cho`l tabiatni ekoturistik rayoni:*

- 4.1. Agrolandshaftlardagi milliy dehqonchilik.
- 4.2. Arnasoy davlat buyurtmasi (zakaznik) biologik resurslari.
- 4.3. Qumli cho`l tabiatni landshaftlari.

*V. Haydarko`l suv havzasi va Arnasoy ko`li suv havzasi ekoturistik rayoni.*

*VI. Nurota tog` tizmalarining shimoliy-g`arbiy qismidagi tog` o`rmonlari, yong`oqzorlar tabiiy landshaftlari ekoturistik rayoni:*

- 6.1. Nurota davlat tabiat qo`riqxonasi.
- 6.2. Forish tog`lari tabiiy landshaftlari.
- 6.3. Qo`ytosh tog`laridagi tabiiy tosh shakllari va qoyatoshlardagi qadimiy rasmlar.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar, tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo`ladiki, viloyatda ekologik turizm resurslari salohiyati juda katta va bu turizm turini rivojlantirish imkoniyatlari ham mavjud. Shu sabali viloyatda ekoturizmni rivojlantirishda turistik talab-turistik taklif-turistik iste'mol muammolarining echimini ishlab chiqish talab qilinadi.

Ikkinchidan, viloyatning tabiiy iqlim resurslarini, biologik-xilma-xillikni betakror tabiat landshaftlarini ekoturizmning nodir, mo`jizaviy, ma'naviy boyliklar deb tushunish va bilish muhitni yaratish lozim bo`ladi.

### **3.2.Ekologik va rekreatsiya resurslari rayonlaridan turizmda foydalanish yo`llari**

Jizzax viloyatida turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini o`rganishda quyidagi masalalarni tadqiq qilish talab qilinadi:

- Viloyatning turizmni rivojlantirish nuqtai nazaridan geografik joylashishdagi qulayligi.
- Viloyatda mehmonxonalar infratuzilmalaridagi sharoitlar.
- Viloyatning hududlari bo`ylab transport kommunikatsiya xizmatlarining holati.
- Viloyatdagi turizm resurslarining tavsiflari, ulardan xalqaro va ichki turizmni rivojlantirishdagi talablar va ehtiyojlarning qondirilishi holati.
- Ekologik va rekreatsiya resurslarining turistlarni aaUBL ailishi va xizmatlar ko`rsatish salohiyatiga imkoniyatlari.
- Ekologik va rekreatsiya resurslariga turistik-ekskursiya marshrutlarining ishlab chiqilganligi va turmarshrutlarning reklama qilinganligi holati.
- Viloyatda turistik tashkilotlarining tashkil qilinganligi va ularning faoliyati, ixtisoslashuvi va samaradorligi.
- Viloyat aholisining turizmga qiziqishi, sayr-sayoqatga qiziqishdan foydalanish imkoniyatlari.

Mamlakatimizning xalqaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarining shakllanishini, uning tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy geografik o`rni belgilaydi. O`zbekistonning tabiiy-iqtisodiy o`rnini qayd qilingan talablar bo`yicha belgilashda taniqli geograf olimlar katta tadqiqotlarni o`tkazishgan. Ularning xulosalari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi hududining o`rmini iqtisodiy geografik jihatdan uch mikro, mezo va makro darajalarga bo`linadi.

1. O`zbekiston hududining mikrodarajadagi holati, uning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan o`rnidir. Mamlakatimiz hadimdan Turon zaminida salohiyati katta davlat bo`lgan. Bu ko`p jihatdan uning geografik markazligidan kelib chiqqan. Yaqin o`tmishda ham O`zta Osiyodagi respublikalar bir-birlari

bilan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ko`p sohalari bilan o`zaro bog`langanlar. Markaziy Osiyo davlatlarida bonyod qilingan temir yo`llar va avtomagistrallar, gaz quvurlari, elektr liniyalari ham bir-birlariga bog`langan. Har bir davlatning «markazligi» siyosiy va iqtisodiy geografik o`rnining muhim ko`rsatkichi uning qo`shtichilik qiladigan mamlakatlar soni, ular ijtimoiy-siyosiy qamda iqtisodiy rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. O`zbekiston Respublikasining 5 ta (Qozog`iston Respublikasi, Qirg`iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, Afg`oniston davlati) mustaqil davlatlar bilan chegaralanganligi uning yirik siyosiy-geografik mintaqasi markazida joylashganligini ifodalaydi. Yana ham aniqroqi, bu qulaylik kelajakda ham o`zining ijobiy natijasini beradi. Markaziy Osiyo davlatlarining asosiy ishlab chiqarish, iqtisodiy va madaniy aloqalari faqat O`zbekiston orqali kechadi.

2. O`zbekistonning mezogeografik o`rni uning ancha kengroq miqyosdagi mavqeい bilan belgilanadi. Bugungi kunda O`zbekiston jahon hamjamiyatiga kirib borishda Markaziy Osiyo davlatlaridan tashqari Afg`oniston orqali Pokistonga va bu davlatdan Hind okeaniga, Turkmaniston Respublikasi orqali Eronga va yaqin Sharq davlatlariga, O`rta Er dengiziga, Qozog`iston, Qirg`iziston orqali Hitoyga, Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlariga, Hindistonga va Tinch Okeaniga, Qozog`iston Respublikasi orqali Kaspiy dengiziga, Rossiya va Evropa davlatlariga chiqishi va siyosiy, iqtisodiy-madaniy qilishining ulkan imkoniyatlari bor.

3. O`zbekistonning makrogeografik o`rni jahondagi davlatlar bilan olib borilayotgan hozirgi aloqalari bilan belgilanadi. O`zbekistonning MDH davlatlari bilan ko`p qirrali aloqalari mamlakatimiz taraqqiyotida salmoqli o`rin egallaydi. Chunki, sobiq ittifoq xalq xo`jaligida o`zaro hamkor respublikalarning barchasi hozir alohida mustaqil davlat bo`lib bu davlatlarning ham iqtisodiy tarmoqlarining rivoji aynan O`zbekiston xalq xo`jaligi bilan bog`langan. Ushbu davlatlar orqali O`zbekiston Shimoliy muz okeaniga, Atlantika okeaniga va Shimoliy va janubiy Amerika qit'alariga chiqa oldi. Ayniqsa, EvroOsiyoning kuchli davlati bo`lgan Rossiya davlati bilan har tomonlama aloqalarning

rivojlanib borayotganligi ham mamlakatimizning mikroiqtisodiy manfaatlariga mos keladi.

Jizzax viloyatining tabiiy-geografig o`rnini belgilashda ham yuqoridagi darajalar yuilar belgilash turizmni rivojlantirishdagi ko`plab imkoniyatlarni aniqlaydi.

1. Jizzax viloyatida turizmni rivojlantirishda, ekologik va rekreatsiya resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashda birinchi navbatda uning mikrodarajadagi o`rni mamlakatimizning viloyatlari orasida markazda joylashganligi hisoblanadi. Viloyatning sharqida Sirdaryo, Farg`ona, Namangan, Andijon viloyatlari, qarbda va Shimoliy g`arbda Buxoro va Navoiy viloyatlari, Janubda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari, Shimolda Toshkent, Xorazm va Qoraqalpog`iston Respublikalari joylashgan. Bu viloyatlarning mamlakatimiz bo`ylab va poytaxt bilan bog`lanish harakatalnishi faqat Jizzax viloyatlari hududlari orqali o`tadi.

2. Viloyatning mezogeografik o`rnashib qulayligi haqida tavsif berilganda shuni alohida ta'kidlash lozimki, viloyat to`g`ridan-to`g`ri Qozog`iston Respublikasiga va Tojikiston Respublikasiga chiqishi imkoniyatlari bor. Shuningdek, bosh?ap viloyatlar orqali O`zbekistonning to`rt geografik tomonlarida joylashgan chet el davlatlariga ham chiqishi mumkin. Bunday qulay imkoniyatlardan xalqaro turistlarning foydalanishi mumkin.

3. Jizzax viloyatining makrogeografik o`rnining ahamiyati va stratik qulayligi uning mezogeografik o`rni bilan birlashtirilgan. Ya'ni, mezogeografik qulaylik va imkoniyatlardan xorijiy davlatlarning ham faqatgina ushbu viloyat chegaralari, hududlaridan o`tishi bilan belgilanadi.

Viloyatda ekologik va rekreatsion turizmning resurslaridan foydalanishda transport kommunikatsiya infratuzilmalarining ham o`rni juda muhim hisoblanadi. Birinchidan, O`zbekiston Respublikasining o`z hududlaridagi viloyatlari va dunyo bo`yicha barcha xorijiy davlatlar bilan temir yo`l transporti aloqalari Jizzax viloyatidan o`tadi. Bu imkoniyat esa viloyatda xorijiy va ichki turizmni rivojlantirishning eng qulay va arzon imkoniyatlaridan biri qisoblanadi.

Ikkinchidan, avtomagistral yo`llari haqida qam aynan keltirilgan imkoniyatlarni sanab o`tish mumkin.

Viloyatning ekologik va rekreatsiya turizmi resurslaridan xalqaro turizmda ham (viloyatdagi 5 ta ekoturistik rayonlarning resurslari), ziyorat-rekreatsiya (payg`ambar sahobalarining qadamjolari, Islom dini ta'liloti ulomolari qadamjolari bilan bog`liq so`lim tabiat landshaftlari) va ichki turizmda ham foydalanshi imkoniyatlari juda katta. Viloyatda xalqaro turistlarni jalb qilish resurslarini ushbu ishning II bobi 1-2 paragraflarida to`liq keltirdik.

Ekologik va rekreatsiya resurslaridan turizmni rivojlantirishda ushbu resurslar va ob'ektlarda turistlarga xizmat qiladigan shart-sharoitlar, ya'ni infratuzilmalar qisman ichki turistlar uchun yaratilgan. Xalqaro turistlar uchun esa deyarli sharoitlar (Zomin sihatgohi va Zomin milliy bog`idan tashqari) qozirgi kungacha yaratilmagan. Lekin xalqaro turistlarni ham, ichki turistlarni qam qabul qilish imkoniyatlari (zamonaviy mehmonxonalar, sihatgohlar, davolash makonlari, pansionatlar) mavjud.

Viloyatda hatto ichki turizmni rivojlantirishda hm ekologik va rekreatsiya resurslari ob'ektlarida xizmatlar ko`rsatish infratuzilmalarining talab darajasida tashkil qilinmayotganligi sotsial so`rov natijalaridan ma'lum bo`ldi (3.1-jadval).

Jadval ma'lumotlari bo`yicha 72 ta talaba (26,75 %) sayr-sayohat va ekskursiya uchun faqat transport xizmatlarini talab qilmoqda, 136 ta talaba (50,53 %) transport, ovqatlantirish va mehmonxona (joylashtirish) xizmatlarini so`rapshmoqda. Alohida e'tibor berish kerakki, so`rovdagagi 62 ta talaba (22,95 %)

sayr-sayohat va ekskursiyaga qiziqishdan faqatgina yo`l boshlovchi yoki ushbu ekskursiyani tashkil qiluvchini so`rashib qolgan. Barcha xizmatlarni o`zlari bajarishmoqchi yoki ushbu xizmatlar uchun haqni o`zlari to`lashga rozi bo`lishmoqda.

### 3. 1-jadval

#### Sayr-sayohat va ekskursiyalarda ko`rsatiladigan xizmatlarni aniqlash natijalari

Savol: Sayr va sayohat ekskursiyalarga chiqish uchun qanday xizmatlar ko`rsatilishi kerak?	Baxmal tumani		G`allaorol tumani		Jami	
	soni	%	soni	%	soni	%
A. Transportni tashkil qilib bersa bo`ldi	33	23,74	39	29,77	72	26,75
B. Transportni, ovqatlantirish-ni, mehmonxonani tashkil qilishi kerak	60	43,16	76	58,01	136	50,58
B. Yo`l boshlovchi, tashkilotchi rahbar etarli, holganlari o`zimizning hisobdan	46	33,09	16	12,21	62	22,95
JAMI	139	100	131	100	270	100

Ushbu tahlillardan ma'lum bo`ladiki, viloyatda hozirgi vaqtida ekologik va rekreatsiya resurslaridan foydalanish infratuzilmalari yaratilmagan bo`lsa ham ularga o`z hisobidan ekskursiyalarga chiqish talablari juda ko`p. Bu holatning o`zi ham viloyatda ichki turizmni rivojlantirishning salohiyatli imkoniyatlari borligidan dalolat beradi.

Ekologik va rekreatsiya resurslaridan turizmni rivojlantirishda foydalanishning yana bir muhim imkoniyatlaridan biri bu

– viloyatdagi ekologik va rekreatsiya resurslarini xalqaro miqyosda ham mamlakatimiz ichki turizmini rivojlantirish miqyosida ham reklama qilish imkoniyatlari hisoblanadi. Ekologik va rekreatsiya resurslarini ro`yxatga olish va tavsiflarini yozishdan ma'lum bo`ldiki, viloyatdagi o'shbu turizm

resurslarning turli-tumanligi va jozibadorligi, betakrorligi juda yuqori va hayratlanarli darajadadir.

Yana ta'kidlash lozimki, viloyatdagi archazor o`rmonlarining musaffo va davolash maskanlarining tabiiy, shifobaxsh buloqlar manbaiga qurilganligi, noyob jonivorlar va dorivor o`simliklarning endemik turlari ko`pligi, ayniqsa islom olamida nom tratgan ulug` avliyolarning muqaddas qadamjolarining ko`pligi ham xalqaro turizm bozoriga o`ta darajadagi jozibador va betakror turizm reklamalarini ishlab chiqish imkoniyatlarni yaratgan.

Shuningdek, viloyat turizmida hozir faoliyat ko`rsatayotgan turistik marshrutlarning ham og`zaki, tushuntirishlar natijasida ishlayotganligini ham e'tiborga olsak va ommaviy axborotlar vositalari, TVda, axborot va reklamalarni tarqatish vositalarida ham zamonaviy turizmnning turistik ekskursiya marshrutlarini hanuzgacha ishlab chiqishga e'tibor bermayotganligimiz ma'lum bo`ladi.

Tadqiqotlardan ma'lum bo`ldiki, hozirgi vaqtida Zomin Milily bog`i va Zomin davlat tabiat qo`riqxonasi chegaralarida faoliyat ko`rsatayotgan «Zomin sanatoriyasi»da dam oluvchilar va Zomin milliy bog`i ekologik-rekreatsiya resurslariga va ob'ektlariga atiga turistik ekskursiya marshruti ishlab chiqilgan va bu turistik ekskursiya marshrutlari asosan ichki turizmda ishlamoqda. Bu marshrut ham og`zaki holatda e'lon qilingan va qayd qilganimizdek respublikamiz turistlariga mo`ljallangan.

Turizmni xalqaro miqyosda ham ichki miqyosda ham rivojlantirish uchun esa zamonaviy turizm reklamalarini ishlab chiqish talab qilinadi. Bunday reklamalarni ishlab chiqishning bu reklamalardagi ma'lumotlarning haqqoniyligi va jozibadorligi, maftunkorligi resurslari, imkoniyatlari viloyatda beqiyos hisoblanadi. Eng muhimi zamonaviy turizm reklamalarini ishlab chiqish katta xarajatlarni talab qilmaydi. Eng muhimi, viloyat mutaxassislar ishtirokida viloyatning barcha ekologik-rekreatsiya ob'ektlariga juda ko`plab hududiy mavzularda turistik ekskursiya marshrutlarini ishlab chi?ish imkoniyatlari katta ekanligi aniqlandi.

Viloyatda ekologik va rekreatsiya resurslaridan ichki turizmni rivojlantirishda foydalanshi imkoniyatlarini o`rganish ham aniq natijalarni berdi (10-jadval).

### 3.2.-jadval

#### Jizzax viloyatida sayr-sayohat ob'ektlarini tanlash natijalari

Savol: Jizzax viloyatida qaysi turistik maskanlarga sayr-sayohatga chiqishni xohlaysiz?	Baxmal tumani talabalari		G`allaorol tumani talabalari		Jami	
	soni	%	soni	%	soni	%
A Viloyatdagi tog`larga, daryolarga	23	17,55	22	15,82	45	16,66
B. Viloyatdagi aziz avliyolar ziyoratgohlariga	48	36,64	54	38,84	102	37,77
B. Viloyatdagi tarixiy joylarga	37	28,24	42	30,21	79	29,25
Г. Aydarko`l suv havzasiga	23	17,55	21	15,10	44	16,29
<b>JAMI</b>	<b>131</b>	<b>100</b>	<b>139</b>	<b>100</b>	<b>270</b>	<b>100</b>

Ushbu jadval natijalarini tahlil qilishdan ma'lum bo`ldiki, Jizzax viloyati yoshlari o`z viloyatlarida sayr-sayohat ekskursiyalariga juda qiziqishadi. Yuqorida jadvaldagi sotsial-so`rov natijalari bo`yicha 45 talaba (16,66 %) viloyatdagi tog`larga va daryo sohillariga sayr-sayohatga chiqishni xohlaydi. 270 talabadan 102 tasi (37,77 %) viloyatdagi ziyoratgohlarni ko`rish istagini bildirdi, 79 ta talaba (29,25 %) viloyatning tarixiy joylari bilan qiziqadi va 44 ta talaba (16,29 %) Aydarko`l suv havzasi ajoyibotlariga qiziqadi. Ushbu sotsial so`rov natijalaridan ma'lum bo`ladiki, viloyat aholisiga ichki turizm xizmatlarini taklif qilishning juda salohiyatlari imkoniyatlari bor. Ushbu natijalar to`g`riligini isbotlash uchun tadqiqotlarni davom ettirdik (3.3-jadval).

### 3.3-jadval

#### **Jizzax viloyatidagi betakror tog` tabiati landshaftlarini belgilash natijalari**

Savol: Viloyatning betakror tog` tabiati manzillarini belgilang.	Baxmal tumani talabalari		G`allaorol tumani talabalari		Jami	
	soni	%	soni	%	soni	%
A. Zomin tog`lari tabiati landshaftlari	41	32,29	23	16,54	64	23,70
B. Baxmal tog`lari tabiati landshaftlari	58	44,27	70	50,35	128	47,40
B. Forish tabiati tog`lari landshaftlari	24	18,32	30	21,58	54	20,0
Г. Molguzar tog`lari tabiati landshaftlari	8	6,10	16	11,51	24	8,68
JAMI	131	100	139	100	270	100

Jadval natjalaridan ma'lum bo`ladiki, viloyat yoshlari o`z viloyatidagi ekologik-rekreatsiya resurslarini juda yaxshi bilishadi va ushbu ob'ektlar bilan yaqindan tanishishni xohlashadi. Masalan, sotsial so`rovda javob bergen 270 ta talabandan 64 tasi (23,70 %) viloyatdagi Zomin tog`-o`rmon tabiati landshaftlarini birinchi o`ringa qo`yishdi. 123 ta talaba (47,40 %) birinchi deb Baxmal tog`lari archazor tog` o`rmonlari bilan bog`liq betakror tog` landshaftlarini oldingi darajada deb qabul qilishdi, uchinchi o`rinni 54 ta talaba (20,0 %) Forish tog`lari tabiiy landshaftlari deb belgilashdi. Bu tadqiqotlardagi eng kam ko`rsatkichni 24 ta talaba (8,68 %) belgilashdi (Molguzar tog`lari tabiati landshaftlari). Lekin, bu kam ko`rsatkich ham viloyatdagi yoshlarning o`ziga xos bo`lgan qiziqishlarini bildirdi, bu ham viloyatda turizmni rivojlantirishda muhim ma'lumotlar hisoblanadi.

Jizzax viloyatida ekologik- rekreatsiya resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash yo`nalishlaridagi navbatdagi o`tkazilgan tadqiqotlar quyidagi natijalarni berdi (3.4-jadval).

### 3.12-jadval

#### **Jizzax viloyatidagi ziyorat-reaktsion joylarni aniqlash natijalari**

Savol: Viloyatdagi ziyorat-reaktsion manzillarni belgilang.	Baxmal tumani talabalar		G`allaorol tumani talabalar		Jami	
	soni	%	soni	%	soni	%
A. Havqa ota ziyoratgohi	4	3,05	39	28,05	43	15,92
Б. Avliyo ota Sa'd ibn Abu Vaqqos ziyoratgohi	100	76,33	90	64,74	190	70,37
В. Parpi ota ziyoratgohi	6	4,58	4	2,87	10	3,70
Г. O`sma t ota ziyoratgohi	6	4,58	2	1,43	8	2,96
Д. Bog`i-Mazor ziyoratgohi	15	11,45	4	2,87	19	7,03
<b>JAMI</b>	<b>131</b>	<b>100</b>	<b>139</b>	<b>100</b>	<b>270</b>	<b>100</b>

Jadval ma'lumotlaridan ma'lum bo`ladiki, viloyat yoshlari viloyatdagi nomdor ziyoratgohlarni yaxshi bilishadi. Shu bilan birga so`rov-suhbatlashish natjalari bo`yicha yoshlar ziyorat-rekreatsiya joylarida dam olish sharoitlari (infratuzilmalari), xizmatlar ko`rsatish sharoitlarini ham hisobga olishmoqda.

Masalan, Baxmal kasb-hunar kollejining 139 nafar talabalaridan 4 tasi (3,05 %) o`zlarining yaqinidagi Novqa ota ziyoratgohini tanlashgan bo`lsa, 90 ta talaba (64,74 %) Sa'd ibn Abu Vaqqos ziyoratgohini belgilashgan. Xuddi shuningdek, 131 ta G`allaorollik talabalardan 100 tasi (76,33 %) ham Sa'd ibn Abu Vaqqos ziyoratgohini tanlashgan. Jami 270 ta talabadan 190 talaba (70,37 %) Sa'd ibn Abu Vaqqos ziyoratgohida bo`lish istagini bildirgan.

Viloyatdagi boshqa ziyorat-rekreatsiya joylariga ham oz bo`lsada talabgorlar bor. sa'd ibn Abu Vaqqos ziyoratgohiga talabning kuchliligining asosiy sabablaridan biri shundaki, bu ziyoratgohda ziyorat va dam olish sharoitlari (infratuzilmalari) to`liq yaratilgan. Ya`ni kesuvchilarga talab va ettiyoj xizmatlari a`lo darajada (ovqatlantirish, joylashtirish xizmatlari) ko`rsatiladi. Turizmni rivojlantirish uchun ham aynan har bir turistik ob'ektga

ularga xizmatlar ko`rsatish sharoitlar yaratilishini vaqt kun tartibiga qo`ymoqda. Ikkinchidan bu xizmatlar albatta ko`plab yangi ish o`rinlarini keltirib chiqaradi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz taxlillari natijalariga e'tibor qaratadigan bo`lsak viloyatdagi turistik imkoniyatlar borasida quyidagi xulosalariga ega bo`lamiz.

***Viloyatda ekoturizmni rivojlan Tirishning kuchli tomonlari:***

- Ushbu sayyoqlik turining ekologik toza va tabiatga o`ta yaqin dam olish turi bo`lib, bugungi kunning dolzarb masalalaridan ekanligi.
- Ekoturizmning inson organizmini sog`lomlashtirish xususiyatiga ega ekanligi
- Biologik, ekologik, tarixiy-madaniy tomondan yaxshi o`rganilgan Milliy tabbiy xalq bog`ining mavjldigi
- Viloyatdagi alohida qo`riqlanadigan hududlar Zomi davlat qoriqxonasi xamda Nurota davlat qo`riqxonala o`zirining ga xos tabbiy, tarixiy va madaniy turistik manzillar sifatida e'tirof etilishi.
- Maxalliy va hududiy raxbarlar tomonidan turizmning qo`llab quvvatalanayotganligi.
- Axolining turizm soxasi kelajagiga ishonchi borligi.

***Shuningdek, zaif tomonlar sifatida***

- Turizm yo`nalishida keng miqiyosda faoliyat yurituvchi menejmenlarning etarli emasligi
- Turistlarni qabulqilishda faollik xozircha zaif bo`lib, bunga sabab maxalliy axolining boshlang`ich mabag`lari yo`qligi, shuningdek, ularda turizm soxasida bilim va kÿnikmalarning etishmasligi.
- Viloyatdagi alohida qo`riqlanadigan hududlar xodimlari orasida turistlarni qabul qilish va ularga servis xizmati ko`rsatishda alohida malakali kadrlar etishmasligi, shuningdek, bu borada tashkiliy ishlar xam yaxshi yo`lga qo`yilmaganligi.

- Mahalliy aholi va viloyatdagi alohida qo`riqlanadigan hududlar hamda turizmni rivojlantiriuvchi organlar o`rtasida o`zaro aloqa va qo`llab quvvatlash mexanizmi shakllanmaganligi ma'lum bo`ladi.

Shunga qaramasdan Jizzax viloyati tabiiy maskanlarida turizmni yo`lga qo`yish va yanada rivojlantiri uchun ko`plab imkoniyatlar borligi ta'kidlanadi, ularga:

- Infrastrukturani shakillantirish uchun ma'sul, barcha javobgarlikni zimmasiga oluvchi tashkilotni shakillantirish mumkinligi.
- Turizimga mutaxasislik nqtai nazardan yondashuvchi organining shakllanayotganligi.
- Mehmondo`stlik va tashrif buyuruvchilarga yuqori malakali xizmat ko`rsatish imkoniyatining mavjudligi.
- Maxalliy aholining rahbariyat va turistik ma'sullar bilan birgalikda ishlashi.
- Mahalliy aqoli va alohida qo`riqlanadigan xududlar xordimlarining turistlarga xizmat ko`rsatish yuzasidan kam darajada bo`lsada bilim va ko`nikmaga ega ekanligi xamda to`la o`rganishga xarakat qilinayotganligini ko`rastib o`tish mumkin.

Viloyatda turizmni rivojlantirishda ba'zi bir havflarning borligini xami ta'kidlab o`tish mumkin. Masalan,

Shu paytgacha aniq turistik marshrutlar yo`qligi va mavjudlarining xam juda kam reklama etilganligi.

Turistik yo`nalishda davlat to`lovlarining kamaygan miqdorda to`lanishi va boshqa imkoniyatning borligiga qaramasdan joylardagi tadbirkorlarning ushbu sohaga kam e'tibor qilishi.

Hududning iqlimi tabiiy o`zgarishlarga kuchli bog`liq ekanligi.

Viloyatdagi aloxida qo`riqlanadigan xududlar xodimlarining turizm yo`nalishida tashrif buyuruvchilarni boshqaruvini to`laligicha o`z zimmasiga olmaganligi. Natijada turistlar va kelib-ketuvchilarning estetik, ekologik

savodxonligining etishmasiligi oqibatida atrof muxitning kuchli ifloslanishi, maxalliy aholi hayotiga va sog`ligiga havf soluvchi xolatlarning ro`y berishi (yonqin chiqishi, suvning ifloslanishi, chiqindilar va x.k....)

5. Ichki va tashqi turizm rivojlanishida cheklovlar mavjud bo`lib unga bilimi va malakaning etishmasligi, turizmga bir tomonlama yondashuv, esdalik sovg`alar, folklor va boshqa ko`ngil ochar mashg`ulrotlarni tashkil etilishidagi hatti-xarakatlarning etarli emasligi ko`rsatib o`tiladi.

Xozirgi kunda Jizzax viloyatida turistlar uchun ekologik marshrutlarning tamoyillarini aniqlash, ya'ni qulaylik, jozibadrlik, mazmundorlik, faoliyatlichkeit, ko`pqirralilik, qulaylik va axborotlanganlilikni yo`lga qo`yish va ular xavfizligini ta'minlash choralarini belgilash maqsadga muvofiqdir.

Jizza viloyati hududida turizmning faol turizm: (trekking, baland tog`liklar osha piyoda yurish), speleoturizm, birlashtirilgan turizm (aslida bir yo`nalishda faol turizmining xar-xil turlarini biriktirgan), havaskorlik (sport) turizmi, ov va baliq ovi; ekologik turizm (ekoturizm): turistlarni o`ziga jalb etadigan tabiiy maskanlar yoki alohida elementlar: manzaralar, tabiat obidalari, o`simlik va hayvonotning alohida turlari, yoki ularning o`xshashligi; davolash-sog`lomlashtirish turizmi (rekreatsion): sog`lomlashtirish maqsadida hamda turli kasalliklar oldini olish maqsadidagi tadbirlar; madaniy turizm (bilish): tarixiy, madaniy va geografik qadamjolarga tashrif buyurish; folklor-etnografik turizm: Ornetalogik turizm: qushlarning hayoti, noyob turlarini o`rganiuvchi turi, gastronomik turizm: milliytaomlar va ularni tayyorlash, istemol qilish, agroturizm ya'ni qishloq ho`jaligi erlari va qishloqlarni o`rganish, baliq ovi va ovchilik turizmi, etnografik turizm: milliy qadriyatlar mahalliy folklor va hunarmandchilik bilan tanishish, diniy turizm kabi yo`nalishlarini rivojlantirish mumkin. Mehmono`stlik uylari, tarixiy turizm: xalq me'morchilik obidalari va muzeylarga tashrif buyurish kabi yo`nalishlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq bo`ladi (3.2-jqadval).

Bugungi kunda viloyatning chekka qishloq hududlarida turistik infratuzilmani barpo etish orqali mahalliy aholi uchun qo`shimcha va yangi ish

o`rinlarini barpo etish, yangi turistik-ekskursiya yo`nalishlarni yaratish, madaniy va sport tadbirlarini rivojlantirish, turizmning yangi turlarini (qishloq xo`jaligi, diniy-ma'rifiy, milliy taomlar, xunarmandchilik, baliq ovlash, alpinizm va boshqalar) tashkil etish mumkin.

Zomin hamda Forish tumanining so`lim va sokin qishloqlarida sayyoohlар uchun barcha shart sharoitilar yaratilgan bir necha o`nlab uy mehmonxonalari tashkil etilgan (3.3-jadval). Ya`ni, sharqirab oqayotgan soy bo`yiga dam olish uchun tapchanlarda joylar qilingan, oshxonalar va yotoqxonalar milliy, o`ziga xos jixozlangan va yuvinish joylari gigienik talab darajasiga keltirilgan. Hovlilarga rayxon va boshqa turli tuman gullar ekilgan, doimo toza va ozoda. Qo`shimcha tarzda doimiy aloqa uchun telefon, telefizor, radio, parabalik antenna va hatto internet termog`iga ulanish uchun kompyuter qo`yilgan. Ushbu xonadonlarga tashrif buyurgan sayyoohlар mahalliy aholining turmush tarziga xos tarzda kutib olinadi. Ya`ni sayyoohlар qishloq mahalliy aholisining etnografiyasi, urf odatlari, milliy taomlari va marosimlari, tabiiy hamda tarixiy yodgorliklarini ko`rish bilan birga azaliy o`zbekona ruh va bag`rikenglik, totuvlik, qishloqlarimizning bugungi kundagi chiroyini ko`radilar. Yana bir ahamiyati shundaki, bunda tabiiy hududlarga kuchli o`zgartirishlar kiritilib, qurilish ishlari olib borilmaydi, ya`ni mehmonxona, restoran va shu kabi ma'ishiy hizmat ko`rsatish uchun alohida binolar xam qurilishiga ehtiyoj qolmasligi bilan tabiiy hududlarimizning saqlanib qolishiga, ona tabiatimiz asrab avaylanishiga xam asos bo`ladi.

Xozircha Jizzax viloyatidagi Zomin tumani Peshog`or, Xulkar, Duoba, Tog`terak, O`riklisoy, Usmonlisoy, Suvlisoy qishloqlarigina tashkil etilgan uy mehmonxonalari kelajakda boshqa Baxmal, G`allaoro, Arnasoy tumanlari jumladan tog` yon bag`irlari va boshqa tabiiy maskanlardagi qishloqlarida xam tashkil etilishi davlat dasturiga kiritildi. Chunki turistlarga hizmat ko`rsatishda, ya`ni, turistlar uchun ovqat tayyorlash, xonalarni tozalash, ularni ekskursiyaga olib chiqish kabi xizmatlarni bajarishda xonadondagi barcha oila a'zolari ishtirok etadilar. Bu bilan qishloq joylarda aholining doimiy ish bilan

ta'minlanishiga, ularning turmush tarzining yaxshilanishiga va oila byujdetining to`laqonli shakillanishiga asos solinadi. Oilaviy biznesning bu tarzda rivojlantirilishi o`z navbatida oilalarimiz mustahkamligini ta'minlashda xam katta omil bo`la oladi. Yana shuni xam aytib o`tish kerakki viloyatning tog`li hududlardagi dam olish maskanlarining aksariyati yilning yoz faslida ish olib boradilar va boshqa davrlarda o`z faoliyatlarining to`laqonli davom ettira olmaydilar. Uy mehmonxonalar esa sayyoohlар tashrifi uchun yilning istalgan vaqtida tayyor bo`ladilar va hizmat ko`rsata oladilar. Bu esa viloyatimizga turistlarning tashrifining uzluksizligini ta'minlaydi. Sayyoohlар go`zal va betakror bo`lgan viloyatimiz tabiatinining barcha fasillaridagi jamolini ko`ra oladilar hamda xonadonlarning yil davomida ish bilan bandligi ta'minlanadi.

Uy mehmonxonalarida qo`shimcha hizmat turlari xam tashkil etilgan bo`lib bunga sayyoohlarni turistik marshrutlar bo`ylab safarlarga olib chiqish, ularga baliq ovlash va tabiatda dam olishlari uchun anjomlarni va transport vositalarishni ijaraga berish, milliy taomlarni tayyorlashlariga sharoit yaratish, qishloq xo`jalik ekinlarini ekish va ishlov berish, ularni yig`ishtirish, saqlashda va qayta ishslashda ishtirok etish, ot, eshak, tuya, arava kabi mahalliy ulovlardan foydalanishlariga imkon yaratish kabilarni ko`rsatibo` mumkin. Ushbu hizmat turlari xar bir xonodoning sharoiti va turistlarning qiziqishlaridan kelib chiqib tashkil etiladi va bir birini takrorlamaydi. Masalan bir xonadonda qozon patir pishirilsa, boshqasida tandir kabob tayyorlash texnologiyasi ko`rsatilib berilish mumkin, shunday tarzda “Qurt davo”, “Bodom atala”, “G`ilmindi” kabi shifobaxsh milliy taomlar ro`yxatini davom ettirish mumkin. Sayyoohlarga ko`ngilochar dasturlarni namoyish etish xam o`ziga xos bo`lib ular xar bir qishloqning udum va an'analaridan kelib chiqib tayyorlangan ularga “Kelin salom”, “Beshik to`yi”, “Muchal bayrami”, “Asal bayrami”, “Shifobaxsh damlamalar” kabi tadbirlarni kiritishimiz mumkin.

Qishloq aholisining turizm borasidagi savodxonligini oshirish, ularda turistlarga servis xizmatini jaxon standartlari darajasida ko`rsatish malaka va ko`nikmasini shakillantirish, mahalliy axoli o`rtasida gid tarjimonlarni

etishtirish, turistlarga estalik sovg`alar tayyolash kabi galadagi masalalarni xal etish maqsadida Birlashgan maillatlar tashkilotining rivojlantirish dasturi doirasida uy mexmonxona bekalari va chet tillari o`qituvchilari uchun turli seminar treninglar, davra suxbatlari va malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda.

Xozirda viloyatga tashrif buyuriayotgan sayyoxlarning 40 foizini 50 yoshdan yuqori bo`lganlar, 30 foizini 35 dan 50 yoshgacha bo`lganlar va 22 foizini 35 yoshgacha bo`lgan insonar tashkil qilmoqda( 3.4-jadval).

Shuningdek, viloyatga tashrif buyuriayotgan sayyyoxlarning 32 foizni O`zbekistonlik axoli, 42 foizni MDH mamlakatlari axolisi va boshqa chet elliklar 26 foizni tashkil qilmoqda ( 3.3-jadval) .

Yuqorida ta'kidlab ýtilgan sayyoqlik borasida olib borilayotgan ishlar Viloyatimiz turizmi yo`nalishlarini rivojlantirishning dastlabki ko`rinishlari xolos. Agar shu kabi tabiiy maskanlar bag`rida joylashgan sayyoqlik imkoniyatiga ega hududlarning nixoyatda ko`pligini hisobga olsak turizmni rivojlantirish orqali, uzoq qishloq aholisini ish bilan ta'minlash, oilaviy biznesni tabiatni asrash borasidagi ko`plab ishlarni yo`lga qo`yish mumkin.

### **III bob bo`yicha xulosalar**

Tadqiqot ishining uchinchi bobi Jizzax viloyatda ekologik turizmlari resurslarini rayonlashtirish va turizmda foydalanish yo`llariga bag`ishlangsan bo`lib quyidagi 6 ta ekoturistik rayonga ajratolgan va xaritasi ishlab chiqilgan.

*I. Turkiston tog` tizmalaridagi archazor o`rmonlari va biologik resurslari ekoturistik rayoni:*

- 1.1. Zomin davlat milliy bog`i.
- 1.2. Zomin davlat tabiat qo`riqxonasi.
- 1.3. Zomin tog`lari archazor o`rmonlari tabiatni landshaftlari.
- 1.4. Zominsuv daryosi havzasi.

*II. Molguzar tog` tizmalaridagi archazor o`rmonlari bilan bog`liq tabiat landshaftlari ekoturistik rayoni:*

- 2.1. Baxmal tog`lari archazor o`rmonlari tabiat landshaftlari;
- 2.2. Sangzor daryosi havzasi;
- 2.3. Oyqor tog`i archazor o`rmonlari tabiat bioxilma-xilligi landshaftlari;

*III. Jizzax suv ombori havzasi ekoturistik rayoni:*

- 3.1. Jizzax shahridagi ekologik, ijtimoiy-madaniy resurslari.
- 3.2. Jizzax shahri atrofidagi agroturizm va madaniy landshaftlar.

*IV. Mirzacho`l tekisliklari va shimoldagi qumli cho`l tabiat ekoturistik rayoni:*

- 4.1. Agrolandshaftlardagi milliy dehqonchilik.
- 4.2. Arnasoy davlat buyurtmasi (zakaznik) biologik resurslari.
- 4.3. Qumli cho`l tabiat landshaftlari.

*V. Haydarko`l suv havzasi va Arnasoy ko`li suv havzasi ekoturistik rayoni.*

*VI. Nurota tog` tizmalarining shimoliy-g`arbiy qismidagi tog` o`rmonlari, yong`oqzorlar tabiiy landshaftlari ekoturistik rayoni:*

- 6.1. Nurota davlat tabiat qo`riqxonasi.
- 5.2. Forish tog`lari tabiiy landshaftlari.

Shuningdek ushbu ekologik va rekreatsiya resurslaridan turizmda foydalanish yo`llari sifatida chekka qishloqlaridagi honadonlarda mehmonxona uylarini tashkil qilish va bu borada amalgam oshirilgan ishlarga to`xtalib o`tilgan.

## Xulosalar

Viloyatning tabiiy iqlim sharoitlariga ekologik turizm nuqati-nazaridan to`liq ta'rif berildi, tavsiflari yozildi. Turkiston tog` yon bag`ridagi Zomin Davlat qo`riqxonasi va Zomin milliy bog`iga ekoturizm resursi sifatida baho berildi.

O`zbekiston Respublikasi hududlari XIVta ekoturistik rayonga berilgan. Ushbu ekoturistik rayonlardan; V – Nurota; VII – Aydarko`l; VIII – Sirdaryo va XI – Turkiston ekoturistik rayonlari ham Jizzax viloyatida joylashganligi ham viloyatda ekoturizmni rivojlantirish resurslarining katta salohiyatlari borligi alohida dalillar bilan qayd etildi.

Viloyatda jami 37 ta ziyorat-rekreatsiya (ijtimoiy-madaniy) resurslarining ta'rif va tavsiflari viloyatdagi tumanlar bo`yicha yozib chihildi va rekreatsiya turizmini rivojlantirshida foydalanish yo`llari belgilandi. Bu resurslardan foydalanish aholining ijtimoiy-madaniy hayotidagi muhim o`rniga baho berildi.

Viloyatdagi tabiiy-biologik rekreatsiya resurslari (5 yo`nalishda faoliyat ko`rsatuvchi), ulardagi o`rinlar soni, davolanganlar taglil qilinib bu resurslardan turizmni rivojlantirishda foydalanish imkoniyatlari aniqlandi.

Viloyatda turizmni rivojlantirishda ekologik va rekreatsiya resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashda viloyatning mikrodarajadagi o`rni, mezogeografik o`rni va makrogeografik o`rni, ahamiyatiga baho berildi.

## **Foydalanolgan adabiyotlar ro`yhato**

### **I. O`zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O`zbekiston. 2009. - 40 b.

2. O`zbekiston Respublikasining “Turizm to`g’risida”gi qonuni. -O`zbekistonning yangi qonunlari. T. 22. –T.: Adolat, 2000. -131-140 b.

### **II. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari**

3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli ”Buyuk Ipak yo’li”ini qayta tiklashda O`zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada Xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora –tadbirlar to`g’risida”gi farmoni. //Xalq so’zi, 1995 yil 3-iyun.

4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekturizm” MKsining tashkil topishi” to`g’risidagi farmoni № PF-447. //Xalq so’zi. 1992. 27 iyul.

5. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №346 1998 yil 8 avgustda qabul qilingan “Turistik tashkilotlarning faoliyatini takomillashtirish to`g’risida”gi farmoyishi. //Xalq so’zi, 1998 yil 9 avgust.

6. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 maydagи «Xizmat ko’rsatish va servis sohasini 2006-2010 yillarda rivojlantirish haqida»gi PQ-325-sonli qarori.

7. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 21 maydagи

«O'zbekiston Respublikasida 2010 yilga qadar xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida»gi PQ-640-sonli qarori.

8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldag'i “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturi to'g'risida”gi PQ 1474-sonli qarori.

10. “Sayyohlarining O'zbekiston Respublikasiga kelishi va ketishi tartibi to'g'risida”gi nizom. “O'zbekturizm” MK 13.09.2004 yil 23-son.

11. “Turizm faoliyatini listenziyalash to'g'risida”gi nizom 2003 y №-497

#### IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

12. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konstepstiyasi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza), “Xalq so'zi”, 2010 yil 13 noyabr (№ 220),

13. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. - Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim

ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi //Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar.

14. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari/-T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.

15. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir/I.A.Karimov. – Toshkent: «O'zbekiston», 2010. – 80 b.

16. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari/-T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.

17. O'zbekiston Konstitustiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 6 dekabr.

18. Karimov I.A. “Bizning bosh maqsadimiz –jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizastiya va isloh etishdir”. –T.: O'zbekiston, 2005. – 136 b.

19. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonи bo'lishi darkor. Xalq so'zi, 2006 yil 25 fevral.

20. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. Xalq so'zi, 2006 yil 11 fevral.

#### V. Qo`shimcha adabiyotlar

16. Хамидов О.Х. Ўзбекистоннинг экотуристик салоҳияти. Монография.-Т.: ФАН. 2010. -119 б.
17. Alieva M.T. Mehmonxona menejmenti. Darslik. –Т.: TDIU. 2007. -275 b.
18. Биржаков М.Б. Введение в туризм. - С.Пб.: Издательский Торговый Дом «Герда». 2004. -444 с.
19. Бутуров И.Н. Маркетинг и менеджмент иностранного туризма. - М.: Финансы и статистика. 2003. -107 с.
20. Кабушкин Н. И. Менеджмент туризма. –М.: Новое знание. 2005. - 644 с.

#### VI. Davriy nashrlar, statistik to`plamlar va hisobotlar

21.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizastiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. -281 b.

22. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. O'zbekistonning 19 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida jamiyatni modernizastiyalash va iqtisodiyotni innovastion rivojlantirishning dadil odimlari va muvaffaqiyatlari: talaba yoshlar va keng jamoatchilik bilan

uchrashuvlarda foydalanish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy mavzuda ilmiy-ommabop risola. – T.: “Iqtisodiyot”, 2010. - 148 bet.

23.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2010. – 146 bet.

24.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konstepsiyasi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua, T.: “Iqtisodiyot” 2010. – 281 b.

25. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 415 стр.

26. Александров А.Ю. Международный туризм. Учебное пособие. - М.: Аспект Пресс. 2004. -470 с.

27. Балабанов И.Т. Балабанов А.И. Экономика туризма. Учебное пособие. -М.: Финансы и статистика. 2003. - 176 с.

28. Биржаков М.Б. Введение в Туризм: Учебник. - СПБ.: «Издательский дом Герда». 2006. – 512 с.

29. Гуляев В.Г. Правовое регулирование туристской деятельности. -М: Финансы и статистика. 2006. -304 с.

30. Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. Учебное пособие. - М.: КНОРУС. 2005. - 192 с.
31. Здоров А.Б. Экономика туризма. -М.: Финансы и статистика. 2004. -266 с.
32. Козырев В.М., Зорин И.В., Сурин А.И. и др. Менеджмент туризма. Экономика туризма. Учебник. -М: Финансы и статистика, 2004. -253 с.
33. Мирзаев. Р. Солнце путешествует по миру чтобы рассеять тени. –Т.: Ипак “Шарқ”. 2005. -230 с.
34. Норчаев А. Халқаро туризм. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ. 2007. - 235 б.
35. Самойленко А.А. География туризма: Учебное пособие. - Ростов на Дону: «Феникс». 2006. – 368 с
36. Сапожникова. Е.Н. Страноведение: Теория и методика туристского изучения стран. –М.: КНОРУС. 2005. -240 с.
37. Сенин В.С. Организация международного туризма. -М.: Финансы и статистика. 2004. - 400 с.
38. Чудновский А.Д. Управление индустрией туризма: Учебное пособие. – М.: КНОРУС. 2005. – 448 с.
39. Travel Guide Uzbekistan – Tashkent: National Company Uzbektourizm. 2008. -10 р.
40. Основные показатели развития туризма в 2010 г. ВТО. – Мадрид. 2010. -30 с.
41. Tourism: 2020 vision. –Madrid. 1997-2010. -21 s.

## VII. Internet saytlari


42. [www.bashexpo.ru](http://www.bashexpo.ru) – выставки, конференции
43. [www.interunion.ru](http://www.interunion.ru) – туристские ассоциации
44. [www.world-tourism.org](http://www.world-tourism.org) – Всемирная туристская организация
45. [www.wttc.org](http://www.wttc.org) – Всемирный Совет по путешествиям и туризму
46. [www.e-tours.ru](http://www.e-tours.ru) – деловые туры, выставки, конференции
47. [www.travel-library.com](http://www.travel-library.com) – Электронная библиотека путешествий
48. [www.zaamin.uz](http://www.zaamin.uz) – Zomin turistik zinasi sayti

## ILOVALAR

## 1.1-jadval.


### O`zbekistondagi ommaviy sayyohlik yonalishlarining ko`rsatkichlari

Sayyohlik reytinglari::




## 1.2-jadval.

## O`zbekistonda taqdim etilayongan turistik mahsulotlarning ko`rsatkichlari




**1.3-jadval**

### O`zbekiston turizmiga berilgan ijobiy taqrizlarning foiz ko`rsatkichlari (215 ta taqrizdan)




## 1.4-jadval

### O`zbekiston turizmiga berilgan salbiy taqrizlarning foiz ko`rsatkichlari (418 ta taqrizdan)



## 2.1.-rasm.

### Zomun ekoturistik hududining brendi.



## 2.2.-rasm.

### Zomin tumaniga tashrif buyuruvchi sayyoxlар uchun ishkab chiqilgan ekoturistik xarita.



### 3.1-rasm.


### Jizzax viloyati tabiiy xaritasi



**1.2.-rasm.  
Zomin milliy bog`I manzaralar**



**2.3-rasm.  
Zomin davlat qo`riqxonasidagi “Qirq-qiz” tabiiy yodgorligi**



**2.4-rasm.**

**1000 yillik mojurum archasi( Nurota tog` tizmasi)**




**2.5-rasm.**

**Nurota davlat qo`riqxonasidagi Qizilqum arxarlari**




Natalia Beshko

**2.6-rasm.**  
**Nurota davlat qo`riqxonasi Osrafsoyida qadimgi qoyatoshlargagi tosh**  
**bitiklari**




**2.7-rasm**  
**Aydarkol qirg`oqlari**



**2.8-rasm**

### O`zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlari




**2.9-rasm.**

### Sa'd ibn Abu Vaqqos ziyoratgohi



( 2.10-rasm)  
**Zomin sanatoriyasi**



### **3.1-rasm.**

**2.1.-jadval**  
**O`zbekiston Respublikasida turistik resurslarning asosiy ko`rsatkichlari**  
**(Golo`sheva E.V, 2011 g.)**


№	Вилоятлар	Iqlimiylar sharoitlar**	Manzalarining xilma-xilligi ***	Bilish salohiyati****	Turistik resurslarning integratsion ko`rsatkichlari	Ekskursiya resurslari				
						Ekskursiya resurslarining tekhnologik za?iralari	Ekskursiya resurslarining zichligi	Ekskursiya resurslarining tarkibi, %	Tarixiy-madaniy	Ijtimoi y-madan iy
1.	Andijon	2	2	4	4	17,9	4,3	25,2	67,0	7,8
2.	Buxoro	2	1	2	2	163,2	1,1	9,0	20,3	70,7
3.	Jizzax	2	2	2	2	14,6	0,7	9,6	61,6	28,8
4.	Qarag`alpog`i ston Respublikasi	3	2	3	3	39,8	0,2	29,7	35,2	35,1
5.	Qashqadaryo	3	2	3	3	75,4	2,7	74,0	18,6	7,4
6.	Namangan	3	2	2	3	19,0	2,4	17,4	52,6	30,0
7.	Самарқанд	3	2	4	4	75,4	3,1	72,3	15,9	11,8
8.	Surxondaryo	2	3	3	3	43,1	2,1	49,4	27,8	22,8

9.	Sirdaryo	2	2	3	3	13,4	2,5	26,9	52,2	20,9
10	Toshkent	2	2	4	4	38,1	5,7	61,9	31,8	6,3
.	Fargona	2	2	4	4	30,6	4,3	37,3	49,0	13,7
.	Xorazm	2	1	4	4	75,9	16,9	89,7	6,6	5,7

ESLATMA: \* iqlimning ijobiy xususiyatlari, manzaralarning xilma-xilligi va bilish salohiyati, ularning majmuali bahosi ballarda keltirildi:

1. Iqlimi sharoitlar - \*\* 4-jada ijobiy, 3-ijobiy, 2-nisbatan ijobiy, 1-ijobiyliz kam (sezilar-sezilmas holatda);
2. Manzaralar xilma-xilligi - \*\*\* 4-juda yuqori, 3-yuqori, 2-yuqori va o`rtacha, 1-o`rtacha.
3. Bilish salohiyati - \*\*\*\* 4-juda yuqori, 3-yuqori, 2-o`rtacha, 1-past

### Jizzax viloyatining eturistik rayonlari xaritasi




Рыночные сегменты (ниши) на туристическом рынке  
для освоения Зааминской туристической зоны


**3.2-jadval**  
**Zomin turistik zonasida turizmning yo`nalishlarininh rivojlantirish**  
**sigmentlari**



- приоритетные рыночные сегменты



- потенциальные (перспективные) сегменты



- высоко-конкурентные (трудные для освоения)

**3.2-rasm.**

**Zomin tumani Peshag`or qishlog`idagi “Muxabat opa” Mexmonxona uyi**



**3.3 –jadval.**

**Zomin turisitik maskanida tashkil etilgan mehmonxona uylar  
xaqda ma'lumot**


Nº	Uy xujayini va nomlani shi	Manzili	tavsifi va tadbirlar
1	Qarshib oev Rustam “Rustam aka”	Jizzax viloyati, Zomin tumani Duoba Qishlog`i	<p>Uy mehmonxonalar duoba soyining o`ng qirg`og`ida joylashgan.</p> <p>Ushbu mehmonlar uyi tog` bag`rida joylashgan bo`lib, hovli oldida katta tapchani bor. 2-4 ta mehmon qabul qilish imkoniyatiga ega. Xonalar sharqona jihozlangan býlib, kurpacha va xontaxta, televizor, radio kabi jixozlarga ega.</p> <p>Shuningdek, xonadon egalari hoxishlaringizga ko`ra turli ekologik so`qmoqlar bo`ylab sayoxatlarga olib chiqishlari mumkin.</p> <p>“Zomincha osh” – tayyorlash jarayonini ko`rsatish mumkin.</p>
4	Mamay usupov Kamol	Jizzax viloyati, Zomin	Xonadon egalari nihoyatda mehmondo`st bo`lib, siz uchun alohida xonalarni tayyorlab qo`yanlar. Qishloqning so`lim havosi va o`ziga sox sokin muhitni

	“Komol ota”	tumani Teraklis oy Qishlog`i	<p>barcha charchoqlaringizni olib, hujayralaringizni qayta tiklanayotganini xis etasiz</p> <p>Ushbu mehmonlar uyi Zomin milliy bog`a borish yo`lining o`ng tomonida joylashgan. Katta va keng hovlida turli qishloq xo`jalik maxsulotlari o`stirilgan. Tandir va yoshgi oshxona mavjud. Xovlining ikkinchi tomonida sigir, buzoq, echki, tovuq kabi uy hayvonlarini boqish uchun maxsus joylar qilingan. Mexmlar uchun 2 ta xona ajratilgan. Unda xontaxta va ko`rpachalar, sandiq kabi sharqona jixozlar bor. Soy atrofiga 3 ta tapchan o`rnatilgan. 4-6 ta mexmonni qabul qilish imkoniyatiga ega.</p> <p>“Beshbarmoq shou” ni uyushtirish mumkin.</p> <p>Yangi so`yilgan qo`y go`shti va ekologik toza sabzovotlar solib pshirilgan ushbu taom Zominliklarning qadimiy taomi bo`lib u taningizni baquvvat qilishi bilan birga yaxshi ko`rgan taomlaringiz ro`yxatini yana bittaga ko`paytirsa ajab emas...</p>
5	Dushan ov Muxam madi “?al'a”	Jizzax viloyati, Zomin tumani Ettikech uv Qishlog`i	<p>Ushbu xonadoneda o`zbek xonadonlariga hos barcha qulayliklar mavjud. Undan qadimiy o`zbeklarga xos osoyishtalik va oilaviy munosabatlardagi o`zaro xurmat hamda totuvlikni xis qilasiz. Beihtiyor o`zingizni ushbu oilannig bir vakilidek his etasiz.</p> <p>Tog` bag`rida joylashgan, shinam va osoyishta xovli. Xovlidagi turli tuman gullar va kichik yo`lakchalar, tapchan, tandir, yozgi oshxona bor.</p> <p>2-4 ta mehmon qabul qilish imkoniyatiga ega. Xonadon egalari qimiz tayyorlash jarayonini ko`rsatib berishlari mumkin.</p> <p>Shuningdek ko`xna va qadimiy Zominning tarixi bilan bog`lig` Miq qal'asiga safar qilishingiz va ushbu sirli maskan xaqidagi afsona rivoyatlarni tinglaysiz</p>
6	Xolqo`z iev Ravshan “Ravshan ota”	Jizzax viloyati, Zomin tumani Beshkubi Qishlog`i	<p>Zomin tumani Beshkubi qishlog`ida joylashgan bo`lib, 10-12 tagacha mehmon qabul qilishi mumkin. Xonalar sharqona jixozlangan bўlib, xontaxta, kўrpacha, tapchanlarga ega. Ushbu xonadaon egalari Bobo, buvi, o`g`il, kelin va nevaralar birga yashab o`zbeklarning milliy an'analari va udumlariga xos o`zaro xurmat va oila boshiga bo`lgan ehiromni saqlagan holda yashaydilar.</p> <p>Xonadon egalari o`zbek milliy taomlaridan g`ilmindini tayyorlab berishlari va uni tayyorlashni sizga xam o`rgatib qo`yishlari mumkin.</p>
7	Turdiev a Sayyora	Jizzax viloyati, Zomin	Zomindan uncha uzoq bo`lmagan qishloqlardan birida joylashgan bo`lib, xonadon keng va shinam bo`lib, xovlida turli gullar o`stirilgan. Xonalar sharqona

	“Sayyor a opa”	tumani Xulkar Qishlog`i	jixozlangan bo`lib, televizor ko`rish va radio eshitish imkoniyatiga ega bo`lasiz. 4-6 ta mehmon kutish mo`ljallagan qishloq xo`jaligi maxsulotlarini parvarishlash va qayta ishslashda ishtirok etishingiz mumkin. Milliy to`sak, ko`rpacha tayyorlash. shuningdek gilam, kigiz va alacha tayyorlash jarayonlarini xonadonda bog`ilayotgan qo`y junidan ip yigirib tayyorlash va bo`yash, uni to`qish jarayondarini kýrsatib beradilar. O`zingizga chiroylı estalik sovg`asini sotib olishingiz mumkin
8	Ergashev v Qudrat “Qizlar xon opa”	Jizzax viloyati, Zomin tumani Beshbul oq Qishlog`i	Zomin tumaning Beshbuloq qishlog`ida joylashgan ushbu xonadon xovlisi nihoyatda so`lim bo`lib xovosi toza va shinam. Xovlining o`rtasidan sharqirab oqib turgan soy va uning atrofidagi tapchanlar, toza buloq suvmdan mahsus ishlangan favvora xovlining ko`rkamligini yanada oshirgan. Xonadon egasi Qudrat aka siz bilan rus tilida gaplasha oladi. Uning xovlisida kattagina tegirmon bo`lib, tegirmon suv yordamida ishlaydi.

### 3.4-jadval

#### Jizzax viloyati ekoturistik maskanlarida dam oluvchi sayyoohlarniing yosh ko`rsatkichlari



### 3.5-jadval

#### Viloyatga tashrif buyuratgan sayyoohlarning qayrdan kelayotganligi haqida ma.lumot

